

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O`ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O`ZBEK TILI VA ADABIYOT O`QITISH
METODIKASI KAFEDRASI BITIRUVCHISI**

SHUKUROVA AMIRA

SO`Z VA LEKSEMA HAQIDA mavzusidagi
bitiruv- malakaviy ishi

Ilmiy rahbar prof. M. Abdiyev.

Samarqand-2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. SO'Z VA LEKSEMA HAQIDA.....	7
1.1. SO'ZGA BERILGAN TA'RIFLAR HAQIDA.....	10
1.2. LEKSEMA VA SO'ZNING O'ZARO ALOQASI.....	13
II BOB.VAQT VA O'LCHOV BIRLIKLARINING TARIXIY	
ASARLARDA VA XALQ SHEVALARIDA QO'LLANISHI.....	18
2.1. PUL QIYMATINI IFODALAGAN NUMERATIVLAR.....	19
2.2. OG'IRLIK MA'NOSIDAGI NUMERATIVLAR.....	22
2.3. UZUNLIK MA'NOSIDAGI NUMERATIVLAR.....	24
2.4. PREDMETLARNING JOYLASHGAN O'RNIGA KO'RA	
QIYMAT IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.....	27
2.5. PREDMET SATHINI (YER O'LCHOVINI) IFODALOVCHI	
NUMERATIVLAR.....	28
2.6. BO'LAKNI VA JAMLIKNI IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.	29
2.7.VAQT MA'NOSINI IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.....	30
2.8. PREDMETLAR HAJMINI IFODALAGAN NUMERATIVLAR....	33
2.9. SUYUQLIK MIQDORINI VA DONALIK MA'NOSINI	
IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.....	33
2.10. SANOQ SONLARIGA SINONIMLASHGAN	
NUMERATIVLAR.....	34
III BOB. VAQT VA O'LCHOV BIRLIKLARI BILAN BOG'LIQ	
LEKSEMALAR TAHLILI.....	38
3.1. VAQT IFODALOVCHI LUG'AVIY BIRIKMALARNING MATN	
SHAKLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	45
3.2.VAQT SEMANTIKALI OT VA RAVISHLARNING	
SINTAGMATIK IMKONIYATLARI.....	48
3.3. PAYT OTLARI VA RAVISHLARINING MATN	
SHAKLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	50
3.4.HAJM-O'LCHOV BILDIRUVCHI LEKSEMALAR.....	54
XULOSA.....	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	59

ISHNING UMUMIY TAFSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday fanning taraqqiyoti unga xos boʻlgan analitik va sintetik tadqiqotlar nisbiy yetakchiligining tadrijiy almashinib borishidan iborat. Analitik bosqichning asosiy maqsadi oʻrganish obʼyektini qismlarga ajratib oʻrganish boʻlsa, sintetik talqin muayyan bosqich darajasida oʻrganilgan qismlarni butunga birlashtiradi. Analitik va sintetik tadqiqotlarni keskin chegaralab boʻlmaydi. Zero, qismlar oʻrganilayotganda butunga asoslaniladi, butun tadqiqotida qismlar nazarda tutiladi. Shuning uchun analitik bosqich sintetik bosqichni, sintetik bosqich analitik bosqichni doimo taqozo etadi, lekin bulardan biri muayyan tadqiqotda nisbiy yetakchilik qiladi va asosiy ilmiy maqsad unga qaratiladi. Aslida ushbu bilish yoʻllari (induksiya, deduksiya) asosida qism va butunning muhim belgilari aniqlanadi hamda tadqiqot obʼyektining mohiyati bosqichma-bosqich ochilaveradi. Ushbu oʻrinda muhtaram prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi soʻzlarini keltirib oʻtishni oʻrinli hisoblaymiz: “Milliy davlatchiligimizni qayta tiklashda, koʻp asrlik beqiyos maʼnaviy merosimiz, tarix-u madaniyatimiz, din-u tilimiz va muqaddas urf-odatlarimiz yanada qad rostlashida muhim omil vazifasini bajaradi”¹.

Tadqiq yoʻllari deduksiya yetakchiligiga asoslangan anʼanaviy oʻzbek tilshunosligi bilan induksiya usuli hukmronligida ish koʻrayotgan hozirgi oʻzbek sistem tilshunosligining ilmiy yoʻnalishlari bir-birini inkor etmaydi, aksincha sistem lingvistikamiz anʼanaviy tilshunosligimizning muayyan til birliklari, muayyan kategoriyalar yuzasidan olib brogan qimmatli tadqiqotlarining yutuqlariga asoslanibgina oʻzining til butunligi haqidagi taʼlimotini yarata oladi. Maʼlumki, sistema oʻzining tashkil etuvchi elementlari, munosabatlari va strukturasiga ega. Ushbu malakaviy bitiruv ishi vaqt oʻlchash, maʼnosining sistemalilik, elementlik va munosabatlar hosil qiluvchilik xususiyatlari tadqiq etiladi.

¹. Каримов И.А. Халоллик ва фидойилик-фаолиятимизнинг асосий мезони белсин. –Тошкент: Ўзбекистон. – 1994, 3-бет.

O'zbek tilida vaqt va o'lchov ma'nolari mustaqil til birligi (semema) yoki boshqa til birliklari semantikasining tashkil etuvchisi (sema) sifatida mavjud. Vaqt va o'lchov semantikasi o'zining leksik, grammatik, fonetik ifodalanishlariga ega. O'zbek tilshunosligida vaqt ma'nosi payt ravishlari, vaqt ma'noli otlar, sifatlar, olmoshlar, fe'llar, yuklamalar kabi morfologik, payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruktsiyalar singari sintaktik yo'nalishlarda o'rganilgan yoki qayd qilingan. Leksik birliklarning temporal ma'nosi haqida xususiy va u yoki bu munosabat bilan bildirilgan fikrlar uchraydi. Vaqt sememasi va sememalarining tarkibi, ularning sistema hosil qiluvchi imkoniyatlari, vaqt semantikasi makro- va mikrosistemalar, bularning tuzilish xususiyatlari, vaqt ifodalovchi birliklarning lug'aviy sistemada tutgan o'rnini, qo'lami kabi masalalar o'z yechimiga ega emas. So'nggi yillarda jahon tilshunosligida matn muammosiga qiziqish kuchayib ketdi. Bu qiziqish sistemalilikni yuqori sath birliklaridan ham izlash, til va nutqning statik va dinamik sistemalarini farqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Temporal lug'aviy birliklarning nutqiy voqealanish imkoniyatlari ham hozir shakllanib borayotgan matn tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir. Leksik sathga oid temporal birliklarning butun va qism, umumiy va xususiy belgilarini o'rganish, temporal lug'aviy birliklar paradigmalarining sintagmatik imkoniyatlarini tadqiq etish kabilarning amalga oshirilmaganligi ushbu malakaviy bitiruv ishining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning o'rganish ob'yekti. O'zbek tilidagi vaqt va o'lchov ma'noli leksemalar va ushbu leksemalar asosida shakllangan matnlardir. O'zbek tilining sinonim, antonim, omonim, frazeologik, izohli kabi lug'atlari va hozirgi o'zbek adabiyotiga oid asarlar malakaviy bitiruv ishi uchun manbalar bo'lib xizmat qildi.

Malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadi o'zbek tilining leksik sathiga oid leksemalarning paradigmatic va sintagmatik xususiyatlarini tadqiq etishdir. Shu maqsadda tadqiqotning oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- vaqt va o'lchov belgilari va ularning tilda in'ikos etish xususiyatlarini aniqlash;

- temporal semantikaning o'zbek tili sathlari va ularning birliklarida tutgan o'rnini belgilash;

- vaqt va o'lchovni ifodalovchi leksemalarni komponent tahlil etish;
- payt ma'noli leksemalarning semantikasini tasnif qilish;
- temporal leksik-semantik guruhlarning tashkil etilish xususiyatlarini o'rganish;

- vaqt va o'lchov ma'noli leksemalarning semantikasini kodlashtirish;
- vaqt va o'lchov semantikali leksemalarning matn hosil qilish imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Malakaviy bitiruv ishida dialektikaning umumiylik-xususiylik, butun-qism, imkoniyat-voqelik, sabab-natija, mohiyat-hodisa kabi kategoriyalaridan, sistemologiya va sistemaviy tilshunoslikning zamonaviy tushunchalari hamda ko'rsatmalaridan, bilish nazariyasining induktiv va deduktiv, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- vaqt va o'lchovning ob'yektiv, sub'yektiv, belgilari va ularning tilda aks etish yo'sinlari aniqlandi;

- o'zbek tilining temporal maydonida leksik-frazeologik birliklarning tutgan o'rne, ko'lami belgilanadi;

- vaqt va o'lchov ma'noli lug'aviy birliklar komponent tahlil va tasnif etilib, ularning leksik-semantik guruhlari va bulardagi sistemalilikka tavsiflar berildi;

- temporal so'zlarning semik sistemasi asosida ularning sememalari kodlashtirildi;

- vaqt va o'lchov ma'noli leksemalarning sintagmatik, matn shakllantirish imkoniyatlari aniqlandi.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot o'zbek tilshunosligini leksik semantikaga oid komponent va sistem tahlillar nazariyasi bilan boyitadi. Leksema semantikasini sistema nuqtai nazaridan o'rganishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Malakaviy bitiruv ishining xulosa va dalillaridan nazariy leksikologiya yaratish, lugʻaviy semantikaga oid darslik, qoʻllanmalar yozish, temporallik muammolari boʻyicha maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin. Tadqiqotning koʻrsatma va dalillari izohli hamda boshqa turdagi lugʻatlar yaratish uchun samaralidir.

Tadqiqotning tarkibi. Kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

I BOB. SO'Z VA LEKSEMA HAQIDA

Umumiy va xususiy tilshunoslikning eng asosiy tushunchalaridan biri bo'lmish so'z (leksema, leksika) haligacha o'zining aniq ilmiy talqinini topgan emas (Qo'chqortoyev, 1969; Hojiyev, 1981; Ne'matov, 1988; Ne'matov va b., 1995; Shamsiddinov, 1999; Mengliyev, 2002, Abdiyev, 2005).

Ma'lumki, til haqidagi ishlarda so'zga ko'plab ilmiy ta'riflar berilgan. Buning sababi shundaki, tadqiqotchilar, asosan, uni tilning boshqa sathlari birligidan «farqlovchi xususiyatlar»ni izlashganlar. Biroq, so'zning lingvistik mohiyatini to'liq va hammaga manzur bo'larli darajada tavsiflash uchun uni shu birliklar (masalan, so'z birikmasi, gap va b.) birlashtiruvchi holatlarni topish va shu asosda u haqda umumiy xulosalarga kelish mumkin.

So'zning ta'rifi va tavsifiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, uning qandaydir «normal», «dinamik» (harakatdagi) birliklar – so'z birikmasi va gapdan farqlanuvchi statik (turg'un, o'zgarmas) birlik sifatida talqin qilish ustuvor ekanligini ko'rsatdi².

Bu ta'rifda, bir tomondan tub va yasama so'zlar o'zaro farqlanmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan so'z yasallishining *jarayon* ekanligi, binobarin, yasama so'z dinamik harakatning hosilasi ekanligi inobatga olinmagan ko'rinadi. Zero, yasama so'z nutq vaziyati talabi va ehtiyojiga ko'ra yuzaga keladigan nomlashning alohida turidir. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, so'z ayni paytda ham statik va ham dinamik harakat hosilasidir. Bu tezis so'z tilning asosiy birligi degan nazariyani inkor qilmaydi, aksincha, bu «asosiylik nimada namoyon bo'lishini muayyanlashtiradi». Masalaga bunday yondashish bir tomondan so'zning ta'rifi va tavsifi bilan bog'liq. Ko'plab muammolarning yechimiga yangicha yondashish imkonini bersa, ikkinchi tomondan so'z yasallishi bizning ishimizda termin yasallishining nazariyasini yangicha talqin etishga yo'naltiradi.

So'z tilning asosiy struktur-semantik birligi bo'lib, borliq hodisalari, narsa va predmetlarning xususiyatlarini nomlashga xizmat qiladi va u fonetik, leksik,

² Biz malakaviy bitiruv ishining mazkur bobini yoritishda M.Abdiyevning Соҳавий лексиканинг систем таҳлили муммолари. (Тошкент, 2004) monografiyasidagi materiallardan ijodiy foydalandik.

semantik va grammatik bo'lgilarning majmui sifatida amalda qo'llanadi³. Modomiki, bu belgilar har xil tillarda turlicha namoyon bo'lar ekan, so'zga hamma tillar uchun mushtarak bo'lgan ta'rif berishning iloji yo'q. Uni mazkur tilning ichki qonuniyatlari asosidagina ta'riflash mumkin ekanligini ta'kidlash ushbu o'rinda lozim topildi. Bu – bir tomondan ikkinchi tomondan so'zga «gap tarkibidagi ma'noli birlik», o'z ma'nosiga ega bo'lgan tovush va tovushlar majmui kabi ta'riflar aslida noto'g'ri emas va ayni paytda unga xos xususiyatlarni ifodalay olmaydi. Chunki, bunday ta'riflarni, nafaqat, so'zga, balki, undan kichik (morfema) yoki katta (so'z birikmasi va gap)ga nisbatan ham bimalol qo'llash mumkin.

Yaxlitlik, ajralishlilik (ajratib olish mumkinlik) va nutqda qo'llanishlik kabi asosiy xususiyatlarga ega bo'lgan so'zda fonetik, morfologik va semantik strukturalar farqlanadi. Mana shu strukturalarni yaxlit holda birga o'rganish so'zning har bir tilga xos ta'rifini berish uchun keng imkoniyatlar yaratishning vositalaridan biridir. Buning ustiga, *tilda* so'z ifoda va mazmun planlarining majmui, nutqda esa ifoda, mazmun va funksiya planlarining yig'indisi sifatida o'rganishni mantiqan to'g'ri deb hisoblaymiz.

Ko'plab ishlarda *leksema*, *semantema*, *semema*, *sema* kabi tilimizga keyingi yillarda kirib kelgan terminlardan foydalanilsa-da, ularning paydo bo'lish ildizlari haqida ma'lumotlar uchramaydi.

Yuqorida so'zning ifoda mazmuni planlariga ega ekanligi haqida gapirdik. Binobarin, ifoda planida so'z *leksema* deb, mazmun planida esa *semantema* (semema, sema) deb nomlanadi (sema – yunoncha *belgi* degan so'zdan olingan bo'lib, mazmun planining eng kichik birligi sifatida talqin qilinadi).

Demak, sema so'zning elementlar ma'nosi bo'lsa, semema gapdan katta birliklarning ma'no tomonini ifodalovchi termindir. Semema qurilishidagi asosiy va markaziy narsa arxisemadir. Arxisema muayyan sinfnig barcha birliklariga xos bo'lib, ularning umumiy kategorial xossa va bo'lgilarini o'zida aks ettiradi.

³ Гак В. Г. Лисоний белги ассиметрияси ва терминологиянинг айрим умумий муаммолари. Рус тилидан И. Мирзаев таржимаси // Филология.

Masalan, «ota» (o'z bolalariga nisbatan erkak kishi)ning lug'aviy ma'nosida ham boshqa qardoshlik terminlaridagi ham «qarindosh arxisemasi» mavjud, ya'ni *qarindosh* shu sohaga doir terminlar uchun umumiylikni, invariantligini tashkil qiladi. Turli farqlovchi bo'lgilar asosida qarindoshlik sohasiga doir so'zlar orasida tavofutlar aniqlanadi. Bular, L.A.Novikovning ta'kidlashicha, tur semalaridir (Novikov, 1990, 437).

L.A.Novikov *ota* so'zining quyidagi beshta lug'aviy ma'nosi – erkak jins vakili, padar, bevosita qarindoshlik, ron-qardoshlik, birinchi avlod *qarindosh* jins tushunchasining tur aniqlovchilari sifatida namoyon bo'ladi. Qayd etilgan differensial semalar *ota* so'zi qarindoshlik termini sifatida mazkur semantik maydonning boshqa semalariga zid bo'ladi; ota-ona (erkak jins) – (ayol jins)] va boshqalar. Binobarin, arxisema va differensial semalar o'zaro giper-giponimik munosabatlarda bo'ladi (Novikov, 1990, 437).

So'zning barqaror semantik strukturasi ta'minlovchi semalardan tashqari, L.A.Novikovning qayd etishicha, kontekstuallik ham borki, ular nutqning talabiga ko'ra paydo bo'ladi. Shu munosabat bilan L.A.Novikov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Kontekstual semalar tufayli nutq (matn)da til birligi ma'nosining konnotativ nozikliklari yuzaga keladi. Konnotativ ma'nolar asosida esa yasama (okkazional) ma'no tarkib topadi» (Novikov, 1990, 437).

V.G.Gakning ko'rsatishicha, til hodisalariga sistem yondashish asnosida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlardan biri so'z muammosi tadqiqotchilari oldiga ham yangidan-yangi vazifalarni qo'yganligidir. Tilni so'z birligi sifatida tavsiflash, uni ta'riflashning mezonlarini ishlab chiqish, mazmun tomonini, uning tahlil usullarini o'tashi, leksikaning sistemaviyligini, so'zni *til* va *nutq*, *matn* nuqtai nazardan o'rganish va boshqalar.

Ko'rinadiki, so'z o'ziga xos lingvistik hodisa sifatida o'ta murakkab bo'lib, yuqoridagi aspektlarda o'rganilishi ko'plab qiyinchiliklar va ularni bartaraf qilish muammosi bilan bog'liq. Binobarin, so'zning bir til doirasida barchaga manzur bo'ladigan ta'rifini berish qiyinligini tasavvur ega bo'ladi. Shunga

asoslanib, tilshunoslik tarixida soʻzni taʼrif va tavsiflashning yetmishdan ortiq mezonlari ishlab chiqilgan (Gak, 1990, 465).

Ularga asos qilib grafik (orfografik), fonetik, struktur, grammatik, semantik, sistem tamoyillar olingan. V.G.Gak oʻzining yuqorida qayd etidgan maqolasida soʻzni aniqlash va tavsiflashning ikki aspekti mavjudligini koʻrsatadi, ularning har biri yana mayda-mayda aspektlarga ega ekanligi taʼkidlangan.

Darhaqiqat, umumiy va xususiy tillar uchun bir xil qiymatga ega boʻlgan soʻzning taʼrifini berish qiyin. Bunda har bir tilning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ish koʻrish tegishli natijalar berishi mumkin.

Qolaversa, soʻzga berilgan taʼriflarning koʻpligi va rang-barangligiga hayratlanmasa ham boʻladi. Chunki tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarining sermaʼno va serqirra ekanligi ularning lisoniy ifodasi boʻlmish soʻzda ham oʻz aksini topgan. Bu holatni mumtoz adabiyotimiz vakillari yirik mutasavvuf va faylasuflarimiz asarlarida ham koʻrishimiz mumkin.

Ularga xos umumiy boʻlgi, xususiyat shundan iboratki, narsa (zot) koʻp uzviy va murakkab hodisa sifatida taʼriflanib, bu yuzlab misollarda soddagina qilib izohlangan.

1.1. SOʻZGA BERILGAN TAʼRIFLAR HAQIDA

Til haqidagi fanda soʻzga berilgan son-sanoqsiz taʼriflar fikrimizning isbotidir. Buning bosh sababi leksema (soʻz)ning shaklan va mazmunan serqirraligidadir. G.Gegel aytganidek, har bir narsa (demak, soʻz ham) oʻta serqirra boʻlib, oʻrganish jarayonida uning yangi-yangi qirra va tomonlari, munosabat va aloqalari ochilib boraveradi. Shuning uchun ham soʻzga beriladigan taʼriflar soni oshib bormoqda. G.Gegel oʻzining «Mantiq» kitobida «bir hodisaga xilma-xil taʼrif berish ziddiyat emas, balki oʻrganilayotgan narsa mohiyatining chuqurlasha borishi», – deb taʼkidlagan edi. Borliqdagi har qanday narsa, hodisa kabi psixologiya, falsafa, mantiq hamda lingvistikaning semiotika, semantika, semasiologiya singari boʻlimlarining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanmish soʻz ham koʻp qirralidir. Shuning uchun uning har bir qirrasiga mos alohida-alohida taʼriflash oson ish emas. Soʻzga berilgan taʼriflar koʻp holatlarda bir-birini

inkor qilsa ham, aslida uni teranroq va chuqurroq idrok etish imkonini yaratadi. Nemis mumtoz falsafasining vorislari bilishning bu muhim omili aslida islomiy tasavvufdagi bilish nazariyasi ekanligi, keyinchalik uning Yevropaga kirib borganligi manbalarda o'z aksini topgan. Shuningdek, J.Rumiy, F.Attor, A.Navoiy asarlarida narsaning serqirraligi va shu bois o'nlab ta'riflar berish mumkinligi ko'plab misollarda soddagina qilib izohlab berilgan. «Lison ut-tayr»dagi «Ko'rlar tavsifidagi fil», J.Rumiy tavsifidagi «Qorong'u xonadagi fil» kabi rivoyatlar buning yorqin dalilidir. Bu rivoyatlarda zot (mohiyat)ni ziddiyat bo'lgisi va xususiyati asosida aniqlash mumkin emasligi to'g'risidagi falsafiy g'oya olg'a surilgan. Bu o'rinda So'fi Olloyorning yuqorida qayd etilgan ta'rifini yana bir marta eslatib o'tish joizdir, ya'ni islomiy tasavvufda zot «majmui asmo va sifat» (ismlar va sifatlar yig'indisi) deb baholanadi. Hech bir sifat, zot, mohiyat umumiylik kasb eta olmaydi. Lekin zot, umumiylik, mohiyat shu sifatdan xoli ham emas. Sharq tasavvufida berilgan bu talqin g'arb dialektikasi tomonidan to'la-to'kis qabul qilingan va undan onglilik bilan foydalanuvchi har qanday olim, jumladan, tilshunos ham avvalo, o'z asosiy tadqiq manbaining qaysi qirralariga (ya'ni qaysi sifatiga) tayanib ish ko'rayotganligini sharhlab bermog'i va shu qirralarning o'z tadqiqoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslamog'i, tadqiqot manbai boshqa sohalarga qo'llanma sifatida ochiq qoldirishi lozim. Bu onglilik va izchillik bilan amalga oshirilgan ilmiy-amaliy jarayonga tadbiiq etiladigan metodologik omilga qo'yiladigan asosiy va bosh talabdir.

Aytib o'tganimizdek, so'z (leksema)ga barcha tillar uchun umumiy bo'lgan ta'rif berish juda qiyin. Biroq, tadqiqotchi o'z tahlil manbaining asosiy birligi mohiyatini ochmasdan turib, ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi. Shuning uchun ULSning asosiy birligi bo'lgan leksemaning tavsifiga (ta'rifiga emas) tayanamiz.

O'zbek tilshunosligida leksema quyidagicha tavsiflangan:

–«... shakl va ma'no jihatidan bir butun holda tekshiriladigan mustaqil ma'noli so'z» (O'TIL, I, 430);

—«Til birligi ifoda plani (vositasi,—A.Sh.) va mazmun planiga ega bo'ladi; bunda mazmun plani ifoda planiga til bosqichida berkitilgan bo'ladi, til xotirasida saqlanadi, nutqda ana shu ifoda plani bilan mazmun plani birgalikda, o'zaro birikkan holda uchraydi. Leksema ana shu talablarga javob beradi, shunga ko'ra, til birligi deb qaraladi»⁴.

—«Jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turi leksemadir»⁵.

Termin sifatida namoyon bo'ladigan leksemalar o'zbek tili umumlisoniy lug'aviy sistemasining bitmas-tuganmas boyligidir. Fan va texnikaning barcha sohalari qo'llanayotgan leksemalar bir joyga to'plansa (ya'ni faqat izohsiz lug'at tarziga keltirilsa), yuzlab jildlik lug'atlar paydo bo'lardi. Chunki, 500 dan ortiq fan va ularning sohalari tarkibida, texnikaning barcha jabhalarida millionlab so'z/terminlar darsliklar va qo'llanmalarda, qomuslar va lug'atlarda, ma'lumotnomalarda, ilmiy, ilmiy-ommabop nashrlarda, yuzlab gazeta va jurnallar sahifalarida o'z aksini topgan.

Har bir tilning leksik boyligi faqat yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi, chunki lug'at tarkibida xilma-xil kasb-hunar egalari tomonidan yaratilgan lug'aviy birliklar ham mavjud.

Yuqorida aytilgan fikrdan farqli o'laroq, kasb-hunarmandlikka oid lug'aviy birliklar shu nutq egalari tilida termin sifatida qo'llansa (*terini oshlash kerak, ertaga gilam to'qishni boshlaymiz, kashtalarni bozorga olib chiq, etikning qo'njini tekisla* va h.k.), kasb-hunarlariga aloqasi bo'lmagan shaxslar nutqida so'zlik vazifasini bajaradi. Qiyoslang: *etik sotib oldim, kavush tiktirdim, ko'ylagi yirtildi, qalpog'i eskirdi* va h.k.

Shuning uchun ham har qanday lug'aviy birlik so'z va termin sifatida kishilar nutqida iste'molda bo'ladi.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Семема мустақил тил бирлиги // УТА, 1984, 3-сон, 24-30-бетлар.

⁵ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. —Тошкент, 1995, 199 б.

1.2. LEKSEMA VA SO'ZNING O'ZARO ALOQASI

Leksema va so'z. Nazariy yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda *leksema* atamasi bilan nomlanadi. Leksema tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchasidan biri bo'lsa ham, uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan, deb bo'lmaydi.

Tilshunoslikda leksema va uning lisoniy tizimda tutgan o'rnini masalasidagi murakkab va chigal muammodan biri - leksemaning til struktur birligi bo'la olish-olmasligi. Ko'plab tilshunoslar tilning struktur birliklarini sanar ekan, fonema, morfema va konstruksiya bilan cheklanib, leksemani tilning alohida qurilish birligi emas, balki morfemaning bir ko'rinishi sifatida qaraydi. O'zbek tilshunosligida leksikani tizim sifatida tadqiq etish natijalarini umumlashtiruvchi o'quv qo'llanmasida (H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari) ham leksema «jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemani o'ziga biriktira oladigan morfema turi» tarzida morfemaning bir ko'rinishi sifatida ta'riflanadi. Leksemani morfema orqali ta'riflash, o'z-o'zidan, lisoniy qurilishda uning alohida, mustaqil o'rnini yo'qligiga ishora qiladi. Holbuki, leksema ko'p hollarda, jumladan, V.V.Vinogradov ta'kidlanganidek, leksika va grammatikaning asosiy birligi sifatida qaraladi. Agar leksemaga shunday yondashilsa, tilning asosiy yarusi — leksik sath ham o'z mustaqilligidan mahrum bo'lib, morfemik sathning tarkibiy qismi mavqeida bo'la oladi, xolos. Bu kabi holatlar tilshunoslar oldiga leksemaning til tizimida tutgan o'rnini belgilash va asoslash vazifasini qo'yimoqda.

Yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif berilib, u «komevaya morfema» (o'zak morfema) sifatida qaraladi. O'zbek tilshunosligida ham leksema morfemaning bir ko'rinishi sifatida e'tirof etiladi. Biroq turli qurilishli tillarda leksema va morfema munosabatida farqli holatlar mavjud. Ma'lumki, agglyutativ va flektiv tillardagi o'zakning keskin farqlanishi tilshunoslikka kirish

kursiga doir barcha darslik va qo'llanmalarda mufassal sharhlangan. Ularda ta'kidlanishicha, agglyutativ (masalan, rus, arab) tillardagi o'zak har doim so'z yasovchi yoki grammatik shakldan xoli tasavvur qilinmaydi va ma'no anglatmaydi. Shuning uchun mazkur tillarga o'zakni morfemalarning bir turi sifatida qarash va shu asosda faqat o'zakdan iborat, tarixiy yasamaligini yo'qotgan o'zak leksemalarni mustaqil qo'llanishga ega bo'lmagan morfemaning bir ko'rinishi sifatida baholash xos va shu xususiyat bilan flektiv til agglyutativ tildan farqlanib turadi.

O'zak va morfema turkiy tillar uchun bir-birini qoplovchi, ma'nodosh tushuncha emas. To'g'ri, uning ikkalasi ham tilning eng kichik ma'noli boiaklari. Bu jihatdan fonema bilan ziddiyatda turadi. Shuningdek, o'zak ham, morfema ham, yaxlitlik (uejifcHoo^opMJieHHOc-n.), umumiylik, tayyorlik, majburiylik va takrorlanuvchanlik xossalariga ega. Biroq ulardan biri kishi ongida aniq denotativ ma'noga ega bo'lib, borliqning biror bo'lagi bilan aloqador holda idrok qilinadi. Boshqasi esa mustaqil denotativ emas, nisbiy ma'noviy mustaqillikka ega bo'lib, bog'lanishlarsiz aniq ma'no kasb etmaydi. Bayon qilingan fikrlarni dalillash uchun quyidagi ruscha *ch*, *pis*, arabcha *qr*, *ktb* va o'zbekcha *o'qi*, *yoz* o'zaklarini qo'llanish va ma'no anglatish xususiyatiga ko'ra qiyoslash yetarli. Mustaqil va alohida ajratilgan holatda *ch* ning o'zak ekanligini mutlaqo anglab bo'lmaydi (*numamb*, *yne6a*, *ynenue*), biroq mulohaza yuritish natijasidagina «/?w»ning *nuuiy*, *nucbMO* so'zlari bilan aloqadorligi seziladi. Arabcha *ktb*, *qr'* o'zaklari haqida esa bir qarashda ularning o'qish va u bilan aloqador til unsurlari ekanligi, biroq mustaqil qo'liana olmasligi xususiyatini aytish mumkin. O'zbekcha *o'qi* va *yoz* o'zaklarmi sharhlashda bu til egasi qiyinchilik sezmaydi. Bunda mulohaza *o'qi* *vayoz* so'zlarining qanday ma'no tashiyotganligi (*o'qi* - *read*, *o'qi* - *study*, *yoz* - *write*, *yoz* - *summer*) doirasida bo'lib, omonimik bog'lanishlarni oydinlashtirish masalasiga yo'naltiriladi. Ko'rinadiki, o'zbek tilida lisoniy sath birligi sifatida eng kichik ma'noli birlikning ikki alohida turi - leksema va morfemani qat'iy chegaralash uchun yetarli ilmiy asos mavjud. Demak, turkiy tillarda leksemani morfema orqali emas, balki lisoniy sathning morfemadan yuqoriroqda turgan va til egasi ongida

borliqdagi ma'lum bir voqelik bilan bevosita aloqada bo'lgan lisoniy birlik sifatida qarash lozim.

Tahlildan ko'rinadiki, o'zbek tili uchun tilning qurilish birliklari sifatida *fonema-morfema-leksema-qolip* tizmasi namoyon bo'ladi. Bularda iyerarxik bog'lanish ham mavjud bo'lib, eng kichik morfema bir fonemaga, eng katta morfema bir leksemaga va eng kichik leksema bir morfemaga, eng katta leksema qolip mahsuliga teng keladi.

Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega.

Leksemaning tayyorligi va so'zning tayyor emasligini dalillovchi asosiy belgidan biri - uning nutqda namoyon bo'lishi uchun har doim tayyor turishi, so'zlovchi uni faqat ishga solishi. Ko'rinadiki, leksema ma'lum bir tilda so'zlashuvchi ongida shakl va mazmunning yaxlitligi sifatida nutqqa chiqishga shay bo'lib turadi, ma'lum bir qonuniyat asosida, so'z yasash qolipi asosida nutq jarayonida hosil qilinmaydi. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ongida, deylik *stol, ona, ruchka, bormoq, qizil, o'n* leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongdagi tushunchaning in'ikosi sifatidagi ma'nolari bilan tayyor holda, so'zlovchining «buyrug'i»ni kutgan holda turadi. So'zlovchiga u ajdodlar tomonidan shakliy va mazmuniy yaxlitlik sifatida «meros qilib qoldirilgan». So'zlovchi uning na shakl, na ma'no tomonini hamma uchun umumiy qilib o'zgartira oladi. Ularai nutq jarayonida boshqa bir ma'noda qo'lashi mumkin. Lekin til jamiyati ongida mazkur shakl bu ma'noni ifodalashga xoslanmaganligi uchun u umumiylik va barqarorlik xossasiga ega bo'la oladi. Masalan, so'zlovchi *haykal* leksemasini «asar» ma'nosida qo'llashi mumkin: *Mening hayhalim bitdi* kabi. Ammo mazkur shaklga «asar» ma'nosi vaqtincha birikib turadi va bu birikish omonat bo'lganligi tufayli yashovchanlik kasb eta

olmaydi. Demak, so'zlovchi leksemaning na shakliy tomonini, namazmuniy tomonini o'zgartira oladi.

So'z esa til jamiyati a'zolari ongidagi leksemaning so'zlovchi tomonidan nutq sharoitiga mos ravishda qo'Uanilishi. Leksema so'z sifatida voqelanganda, o'zining bir qirrasinigina olib chiqadi. So'zlovchi leksemani so'z sifatida nutqqa chiqarganda, unga morfologik, sintaktik, uslubiy jihatdan ishlov beradi. So'z so'zlovchi tomonidan leksema asosida uning nutq maqsadiga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, *Men qiziq, sarguzasht kitoblarni sevaman* gapidagi *kitoblarni* so'zini olaylik. Undagi nutqiy lug'aviy ma'no uchun *kitob* leksemasi asos bo'lgan. Biroq leksemaning fonetik qiyofasi (ya'ni tovushlar), morfologik belgilari (ko'plik, tushum kelishigi), sintaktik vazifasi (so'z kengaytiruvchisi, tobe a'zo, to'ldiruvchi ekanligi) kabilar so'zlovchining individual sa'y-harakati asosida yuzaga keltirildi. *kitob* leksemasi ongimizda «varaqdan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qoiyozma holdagi, davriy bo'lmagan o'quv quroli» va «yirik hajmli asarning qismi» kabi ikkita sememasi bilan tayyor va barqaror holatda turadi. Yuqoridagi gapda (nutqda) uning bir sememasi yuzaga chiqqan. Ushbu leksemaning ongimizda birikuv imkoniyatlari juda kengdir. Bu gapda u *qiziq, sarguzasht* so'zlarinigina biriktirgan. Boshqa valentlik o'rinlari bo'sh qolgan. Shuningdek, sememadagi «bosma» semasigina yuzaga chiqqan bo'lib, «qo'lyozma holdagi» semasi voqelanmagan. Leksemaning semantik imkoniyatida kitobning qandayligi, masalan, badiiyligi yoki ilmiyligi belgilanmaydi. Lekin u badiiy yoki ilmiy bo'lishi mumkin. So'zlovchi esa yuqoridagi so'zda uning badiiyligini bo'rttirgan. Demak, leksema keng ma'noli bo'lib, so'zlovchi so'zda uning ma'lum bir qirrasinigina yuzaga chiqaradi. Lekin so'z so'zlovchi tomonidan boshqa jihatdan boyitiladi. Ya'ni aytilganidek, u fonetik, morfemik, sintaktik, uslubiy tomondan «to'yintiriladi».

Leksema so'zshakl, yasama so'z sifatida nutqda yuzaga chiqadi. Leksemani grammatik shakllantirish uni so'zshakl qiyofasiga kiritish (*so'z* va *so'zshakl* sinonim atama, chunki nutqda grammatik shakllanmagan, so'zshaklga aylanmagan so'z

yo'q) va undan nutqiy maqsad uchun ma'lum qoliplar asosida yasama so'zlar hosil qilish so'zlovchining «so'z tayyorlashi»dir.

Ma'lumki, yasama so'zning ayrimlari nutq jarayonida yasaladi, ayrimlari esa bir vaqtlar yasalgan, bugungi kunda hammamiz uchun tayyor holga kelib, tub leksema qatoriga chiqib olgan. Quyidagi uchta birlikni qiyoslang:

kitob

kitobxon

kitobchi

Bu birlikdan ikkitasi *kitob* va *kitobxon* ongimizda tayyor. *Kitobxon* leksemasi aslida yasama, ammo bugungi kunda u ongimizda leksema holida mavjud. Ammo *kitobchi* so'zi qandaydir g'ayrioddiylikka ega. Chunki u nutqiy yasama so'z bo'lib, leksema sirasiga o'tmagan. *Kitobchi* so'zi ham, *ishchi* (worker, rabochiy) so'zi ham aslida **ot + chi = ot anglatmishi bilan shug'ullanuvchi** shaxs **oti** qolipi hosilasi. Ammo *ishchi* leksemasi bu qolipdan uzoqlashib, undagi o'zak va qo'shimcha qotgan holga kelgan, ya'ni bu leksema hozir yuz berayotgan nutqiy jarayonda yasalmagan. *Kitobchi* so'zi esa mazkur qolip asosidagi, undan nutq jarayonida hosil bo'lgan nutqiy hosila. Demak, ayrim yasama so'z qolipdan chiqib, davr o'tishi bilan leksemalashib, tayyor holga kelib qoladi⁶.

⁶ Sayfullayeva R., Mengliye B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2010, 79-83-betlar.

II BOB.VAQT VA O`LCHOV BIRLIKLARINING TARIXIY ASARLARDA VA XALQ SHEVALARIDA QO`LLANISHI

Ma'lumki, kishilik jamiyatida vaqt va o'lchov birliklarining o'ziga xos o'rni bor. Shu bois mazkur birliklar bilan bog'liq juda ko'plab leksemalar ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarda qayd etilgan. M. Koshg'ariy, Yu. Xos Hojib, A. Navoiy, Z. M. Bobur singari donishmandlarning asarlarida mazkur birliklarga xos terminlar qayd etilgan. Biz malakaviy bitiruv ishimizning ushbu bobida yuqorida nomlari qayd etilgan allomalar ichida miqdor jihatdan ko'p bo'lgan Z. M. Boburning "Boburnoma"si va boshqa asarlarda qo'llangan leksemalar haqida to'xtalib o'tamiz.

Keyingi vaqtlarda o'zbek tilidagi numerativ so'zlarni semantik jihatdan gruppalariga bo'lib o'rganishda birmuncha siljishlar bo'ldi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanuvchi numerativlarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilishda S. Nizomiddinova, X. Komilova va P. Hamdamovlarning ishlari bir muncha e'tiborli. M. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulovlar numerativ so'zlarni semantik jihatdan 7 guruhga bo'lib o'rgangan. Numerativlarni anglatgan ma'nolariga ko'ra gruppalashda P. Hamdamov 13 turga bo'lib ko'rsatgan bo'lsa, U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullayevlar 8 turga bo'lib ko'rsatadi.

Sistem tilshunoslik nuqtai nazaridan vaqt birliklarining matn hosil qilishdagi imkoniyatlariga bag'ishlangan tadqiqot M. Hakimova qalamiga nansub bo'lib, unda vaqt ma'noli lug'aviy guruhlar system tilshunoslik nuqtai nazaridan keng va atroflicha tahlil etilgan⁷.

Tarixiy asarlarda qo'llangan vaqt va o'lchov birliklariga oid leksemalarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

⁷ Hakimova M. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. НДА. Фарғона, 2004.

2.1. PUL QIYMATINI IFODALAGAN NUMERATIVLAR

Qadimda oʻlchov birliklari oltin, kumush yoki misdan yasalgan va anglatgan qiymati shunga muvofiq holda bir-biridan farq qilgan, yani tangalarning qiymati tangaga ketgan oltin, kumush yoki mis ogʻirlik darajasi hamda metallining qadri bilan belgilangan. Demak, tanga qanday predmetdan yasaliishidan qatʼiy nazar usha davr uchun pul birligi bulgan. BN da pul qiymatini ifodalovchi quyidagi numerativlar uchraydi: dinor// dinar, dirham// diram, flus// fulus, donge, tanga, ashrafiy, yarmoq, shohruhiy kumush, oltun, rotiba, vajh, shuningdek, olmos kabi soʻzlar ham qoʻllanilgan.

DINOR// DINAR (a.). “Boburnoma”da bu soʻz faqat bir joyda uchraydi: Viloyotdin bir dirham va bir dinor aning bevuqufi xarj boʻlmas edi (BN 26,82). Dinor qadimdan gʻarbu sharqda qoʻllangan pul birligi boʻlib, u tijorat va iqtisodni yurituvchi asosiy muomala vositasi boʻlgan.

Dinor aslida dinnar soʻzidan boʻlib, birinchi nun, yo ga almashtirilgan. Koʻplik holatida nun oʻz joyiga qaytadi. Eronda chop etilgan mashxur “Lugʻatnoma”da qayd etilishicha, Ragʻib Isfaxoniyning “Mufradodi alfozi Quron” nomli asarida dinor-forscha ikki mustaqil soʻzdan tashkil topganligi koʻrsatib oʻtiladi: yani din + ar, u shariat keltirgan narsa (yoki predmet) maʼnosini anglatadi. Damashqda 72 hijriyda zarb etilgan dastlabki dinorlarda islomiy naqshlar boʻlgan. Tangalarni bunday naqshlar bilan bezash islomiy mamlakatlardan XIV asrgacha davom etgan. ijriy IV –V asrlarda Xurosonda tillo va kumushdan zarb etilgan dinorlarga Kalimai shahodat va Ixlos surasidan oyatlar yozilgan. Abbosiylar esa to 170 hijriygacha (Xorun Rashid zamonigacha) dinorni naqshsiz zarb etganlar. Xorun Rashid va undan keyingi hukmronlar oʻz nomlarini tanga yuziga zarb ettirganlar. Keyinchalik Iroq va Quvaytda dinor qogʻoz pul koʻrinishida ham muomalada boʻlgan. U 1000 fulusga teng boʻlgan. Qadimda dinorlar har xil boʻlgan. Dinori Urduniy-1000 fulus, 1 liraga teng; Dinori Ahmadiya – Ahmad ibn Tulun nomi bilan bogʻliq, boʻlib Misrda zarb etilgan.

Dinor qadimda (UP asrda) arablarning pul birligi boʻlib asosan, oltindan. V.M.Berkutovning maʼlumot berishicha, dinor rimliklarning “dinariy” kumush

tangasing nomidan olingan va lotincha “o`ntalik” ma`nosini anglatgan. Inson Karmli “Nuqud ul-arabiya” asarida dinor Rumiy tildagi dinoryusdan olingan deyilgan. Bu so`z tarixini fransuzcha dinyaga bog`aydiganlar ham bor. Musulmon olamida esa dinor oltindan yasalgan. O`zbek lug`atlarida dinor “oltin aqcha”, “oltin tanga” deb berilgan. BN ning ruscha nashrida ega bir dinor 7,5 gramm kumushdan iborat deb izohlangan. V asrda 1,25 grammlik, 6 dirhamlik kumushga teng bo`lgan. Dinorning qiymati XV asr oxiri XVI asr boshlarida ruslar puli bilan solishtirilganda, oltin hisobi bilan 50,75 tiyinlik qiymatga ega bo`lgan.

V.Xintsning fikricha, dinor og`irlik o`lchovi sifatida 1 misqolga teng bo`lib, oltin hisobida 4,235 grammni tashkil qilgan. 1 misqol arablarda 4,250 gramm, O`rta Osiyoda esa 4,25 grammga teng bo`lgan. Shuni ham takidlash joizki, misqol O`rta Osiyoning o`zida ham har xil qiymatni anglatgan. A.Juvonmardiev dinor eski oltin aqcha bo`lib, 6 diramga teng ekanligining qayd etgan. Biz V.Xinstning fikriga qo`shilamiz. “Boburnoma” dagi misol ham bu olim fikrini tasdiqlaydi.

DIRHAM//DIRHAM (a.) kumushdan yasalgan bo`lib uni arablar dirham deb nomlashgan. “Lug`atnoma” asarida o`ndan bir (1/10) dinorga tengligini ko`rsatgan. Dirhamning qiymati dinorga qaraganda kichik bo`lgan, chunki dirham kumushdan yasalgan. Bu so`z “Boburnoma”da faqat bir o`rinda uchraydi: Viloyotdin bir dirham va bir dinor aning bevuqfi xarj bo`lmas edi (BN 26, 82). J.Lapasov tuzgan lug`atda dirham 3,12 grammga teng oltin tanga deb bersa, ba`zi tarixiy asarlarda 3,186 grammga teng ekanligi ko`rsatiladi⁸.

E.A.Davidovichning ko`rsatishicha, Buxoroning 2 dirhami 3,36 gramm, yani 4,8 grammli misqolning 7/10 qismiga teng bo`lgan. Buxoroda 3,5 g. (5,0 gramm misqolni 7/10 bo`lagi) va 3,38 gramm dirhamlar muomalada bo`lgan. 4,8 grammlik misqol dirhamlar faqat Buxoroda emas, balki O`rta Osiyoning boshqa shaharlarida ham bo`lgan.

“G`iyos ul-lug`at” da u shunday izohlanadi: Diramning qiymatini ko`pchilik lug`atshunoslar uch yarim mosh og`irligiga tenglashtirishadi.

⁸ Лапасов Ж. Мумтоз адабий асарлар ўқув луғати. Тошкент, 1994, 64-бет.

Shuningdek, “Tuhfat ul- Mo`minin” va “Kanz” da esa dirhamning og`irligi 6 dong va bir dong 2 qirot va bir qirot ikki tassuj va bir bir tassuj esa 2 ta o`rtacha arpa og`irligiga teng ekanligi qayd etilgan. Yana shunday fikrlar ham borki, diramning og`irligi (yoki qiymati) shu miqdorda bo`lishi kerakki, o`rtacha qo`l kaftida turadigan suvning qiymati bilan teng bo`lishi kerak.

A.Matg`oziyevning yozishicha, dirham so`zi qadimgi grek tilidan rus, chex, slovak, polyak, ukrain, xind, eron, turkiy tillarga kirib o`zlashgan. U arabcha dirham, forsha diram shaklida qo`llanadi. Arablarning mashhur “Al-munjid” lug`atida dirham yunoncha bo`lib, kumushdan zarb etilgan deyiladi⁹. BN da qayd etilgan diram bizningcha E.A.Davidovich qayd etgan 4,8 misqolga teng.

ASHRAFIY (a.) so`zi ham pul eski birligi bo`lib, chervon qiymatiga teng bo`lgan. Chervon o`n so`mlik ( 10 so`m) pul qiymatini anglatadi. Alixon chiqib, bir pora ashrafiy peshkash qildi (BN, 363). Ba`zi manbalarda qayd etilishicha ashrafiy Eronning milliy oltin puli bo`lgan. Bu narsa Texronda chop etilgan “Lug`atnoma” da ham qayd etilgan. Bu so`z tarixi haqida Eron tilshunoslari orasida ikki xil fikr yuradi: 1. Ashraf Afg`on Fotehi Isfaxon XII asrda shu tangani zarb etirgan. Shuning uchun pul uning nomi bilan yuritiladi. 2. Bu pul ashraf oyida zarb etilgan. Ammo bu ma`lumotlardan qat`iy nazar Eron ashrafiysiy uch xil bo`lgan: 1) bir tuman, yani bir misqol tillo; 2) besh ming tuman, yani yarim misqol tillo; 3) ikki ming tuman, yani to`rt yarim tillo. Boshqa mamlakatlarda ashrafiyning “lira” deb deb ham nomlagan. Bu so`z XIX asr manbalarida ham siyrak bo`lsada, uchraydi. “G`iyos ul- lug`ot” da u oltin aqcha, yani 10 mosha

Miqdorda bo`lganligi qayd etilgan¹⁰.

Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida ham Hindistonda XVI asrda iste`molda bo`lgan o`lchov birliklaridan pul qiymatini ifodalovchi ashrafiy va shoxruxiyni ko`p qo`llagan. Ashrafiy Hindistonda uzoq vaqtlar amalda bo`lgan va bugungi kunda ham xalq tilida saqlanib qolgan.

⁹ Matg`oziev A. XIX asr ўзбек тилининг морфологияси.- Ташкент: Фан, 1977, 78-91-б.

¹⁰ Муҳаммад Ғиёсиддин. Ғиёс ул-луғат. –Душанбе: Адиб- Тадж., 1988, 330-б.

2.2.OG`IRLIK MA`NOSIDAGI NUMERATIVLAR

Bobur o`z asarlarida O`rta Osiyo va Hindistondagi og`irlik o`lchovlarini solishtirib, o`zaro farqini ajratib ko`rsatgan. “Boburnoma” da quyidagi og`irlik o`lchovlari uchraydi: misqol, rat, mosha, to`la botmon, man, minosa, tong, ser, pushtivora, xarvor, qop, sanduq, tang-tang, teva, savad, ortmoq.

Og`irlik o`lchovini ifodalovchi numerativlarni anglatgan ma`nolariga ko`ra ikki guruhga bo`lib o`rganish ma`qul:

1. Aniq og`irlikni ifodalovchi numerativlar: “Boburnoma” da aniq og`irliklarni ifodalovchi so`zlar quyidagilar: misqol, botmon, mon, monosa, ser, to`la, mosha, rati, tong.

TO`LA (x. ) B. Xintsning yozishicha, bu so`z XVI asrda, yani Akbar shoh davrida 12 mosha, yani 12,0504 grammga teng bo`lgan. To`la, keyinchalik, hindlarda 12 kilogrammik og`irlik o`lchovini ifodalagan. Ba`zi lug`atlarda to`lani 2,5 misqolga teng ekanligi ko`rsatilgan. Bu so`z ham to`lcha deb ham yuritilgan va u 2,5 misqol bo`lib, 5 naxud qiymatini ifodalagan. Bu so`zni moxicha va maxa deb ham yuritishgan. “Boburnoma”da quyidagi matnda uchraydi: O`n ikki mosha bir to`lakim, to`qson olti rati bo`lgay. To`la Hindistonda uzoq vaqt qo`llangan. Davrlar asosida solishtirilgan ham qiymat ifodasi bir xil. Masalan, Beruniyning “Hindiston” asarida X asrda iste`molda bo`lgan o`lchov birikmalari haqida ma`lumot berilgan. Shunda 1 to`la 12 moshaga tengligi qayd etilgan. XV- XVI asrlarda ham 1 to`la 12 mosha qiymatini ifodalagan. Bugungi kunda ham shu qiymat saqlanib qolgan. Olimning yozishicha, O`rta Osiyoda misqol ko`p qo`llangandek Hindistonda ham to`la o`lchov birligi sifatida ko`p qo`llagan. Bunday holat to`laning uzoq vaqtlar bir xil qiymat ifodalashiga olib kelgan. Natijada Hindiston xalqining asosiy o`lchov birliklaridan biriga aylangan.

MAN//MON (a.). O`rta Osiyo hududlarida har xil qiymatga ega bo`lgan. E.A.Davidovichning yozishicha O`rta Osiyoda manlar dirhamlarda emas, balki misqollarda hisoblangan. Ba`zi bir shahar mani boshqa joylarda ham mashhur bo`lib, savdo sotiqni osonlashtirish uchun qo`llangan.

Hindistonda bir man (1 man) 37 kg. ga teng boʻlgan. A. Beskroviy tomonidan 1959 yilda chiqarilgan “Hindi- Russkiy slovar” da manlar har xil qiymatga ega ekanligi qayd etilgan. Masalan, ogʻirligi bir- biridan farq qilgan, hatto 40 kg. ga teng boʻlgan manlar ham boʻlgan. Bu soʻz “Boburnoma”da qutidagi matnda uchraydi: Bu xud muqarrardir, har yerda qirq ser bir botmon boʻlur, oʻn ikki botmon bir moni boʻlur (BN 266, 359).

“Lugʻatnoma” da keltirishicha, man yunonlarda “manah”, lotincha “minah” deb yuritilgan. Aslida, oʻgirlik oʻlchovi boʻlgan bu soʻz, keyinchalik pul nomiga ham aylangan. Baʼzi lugʻatlarda qayd etishicha man “toʻda” maʼnosida, masalan, xirmon, yani katta toʻda maʼnosini anglatgan. Xirmon aslida “xarman” soʻzidan hosil boʻlgan, yaʼni “xo” ning fatxasi kasraga aylantirilgan. Bulardan tashqari, man qadimda paymona (idish) maʼnosida, yaʼni yer oʻlchaydigan idish maʼnosida ham qoʻllanilib, u 2 ratilga teng boʻlgan. “Nozim ul- attibo” asarida esa man tarozining ikki pallasi maʼnosida qoʻllanganligi qayd etiladi. Manni xarmanga oʻxshatish balki haqiqatga yaqinroqdir. Sababi man boshqa ogʻirlik oʻlchovlariga nisbatan katta qiymatni ifodalagan. Bu holat faqat Oʻrta Osiyoda emas, balki boshqa davlatlarda ham kuzatilgan. Masalan, Hindistonda 1 man 40 serga teng boʻlgan.

2. Taxminiy ogʻirlik miqdorini ifodalovchi numerativ soʻzlar. Bularga tang- tang, xarvar, sabat pushtivora, ortmoq- ortmoq, sanduq- sanduq, qop- qop kabi soʻzlarini kiritish mumkin.

PUSHTIVORA (f.) bir orqa yuk boʻlib, “Boburnoma”da quyidagi matnda uchraydi: Yana kuz mahallaridakim, qulon qoʻyruqʻi degan oʻt chiqib kamolga etib, gul qilib, dona bogʻlar, bu qulon quyruqʻidin oʻn- oʻn ikki pushtivora yana koʻk shaboqdin yigirma- oʻttuz pushtivora suv boshiga kelturib yanchib suvga solurlar, solgʻon zamon- oʻq suvga kirib mast boʻlgan, baliqni tuta kirishurlar (BN 130, 203). “Farxangi zaboni tojiki” lugʻatida “bir orqa yuk”, “bir boylam yuk” ogʻirligini ifodalab kelganligi qayd etilgan. “Gʻiyos ullugʻot” da bu soʻz orqaga koʻtararlik yuk deb berilgan. Har bir kishi oʻz gavdasiga koʻra har xil

boʻlgan ogʻirlikni koʻtarishi sababli bu soʻz taxminiy ifodalagan. Pushtora shaklida ham qoʻllangan.

2. 3. UZUNLIK MAʼNOSIDAGI NUMERATIVLAR

A. Ishaevning yozishicha, qadimdan odamlarning oyoq va qoʻllari, xususan barmoqlari uzunlik oʻlchovi biriklari sifatida keng qoʻllangan. Yogʻoch, quloq, gaz kabi soʻzlarning oʻlchov bildirishi S. Nizomiddinova tarafidan ham takidlagan. P. Xamdamov uzunlik ifodalovchi numerativlarni ikki turga boʻlib oʻrgangan. Biz ham “Boburnoma”da qoʻllangan uzunlik oʻlchovini ifodalovchi soʻzlarni ikki turga boʻlib oʻrganishi maqsadga muvofiq deb topdik: 1. Masofani bildiruvchi numerativlar. “Boburnoma”da masofani ifodalovchi numerativlar qadam, manzil, yogʻoch, shariy, quruq, mil soʻzlari boʻlib, asosan bir joy bilan ikkinchi bir joy orasidagi masofani anglatgan.

MIL (a.). Arablarda bir mil koʻz bilan koʻrinadigan joygacha boʻlgan masofani anglatgan. Navoiy asarlarida mil soʻzi 5 maʼnoda ishlatilgan. Shulardan biri, katta yoʻllarda bir yogʻoch masofani koʻrsatish uchun qoʻyilgan belgi. A. Matgʻoziyev

Mil arabcha soʻz boʻlib, bir farsaxning uchdan bir ($1/3$) qismiga teng ekanligi qayd etadi. Mil lotincha – Milia yoki milla ming qadam maʼnosida qoʻllangan. Koʻpligi alyol. Qadimgi Rumda 1420 metr, fransuzlarda 1482 m. Eronda esa koʻzi sogʻlom kishining koʻz bilan koʻrilishi mumkin boʻlgan uzoqlikka nisbatan ishlatiladi¹¹. Mil farsaxning $1/3$ qismiga teng boʻlgan. “Gʻiyosul-lugʻot” da esa 1 mil 4 ming qadam ekanligi qayd etilgan boʻlsa, “Al-munjid” da mil yunoncha boʻlib: a) koʻzing qiri tushgangacha boʻlgan masofa va b) 4ming liroga tengligi qayd etilgan. “Boburnoma”da bu soʻz koʻp marta uchraydi: Bu kuruhlarni mil bila muvofiq tayin qilildi (BN da 323, 423). Yana: Toʻrt mingdur qadam bila bir mil, Bir kuruh oni Hind eli der bil (BN da 323, 423). Milni kuruh qiymatiga tengligini misollardan ham bilish mumkin. Shuningdek Beruniy ham milni kuruhga tengligini qayd etgan. Demak, mil X asrda ham Hindistonda amalda boʻlgan oʻlchov birligi hisoblangan XVI asrda ham oʻz qiymatini saqlab qolgan.

¹¹ Matgʻoziev A. XIX asr ўzbek tiliining morfologiyasi. - Toshkent: Fan, 1977, 92-6.

Manzil (a.). Bu soʻz Eronda yoʻl oʻlchovi birligini sifatida qoʻllanilgan. Bir manzil tuyada bir kunlik yoʻl, yani 25-30 kmdan iborat boʻlgan. “Lugʻatnoma” da manzil karvon bir kunda yuradigan masofa deb berilgan. Manzillarning suvli va obod joylaridan oʻtishi ularning bosib oʻtgan masofalarining har xil boʻlishiga olib kelgan. Ikki manzil oraligʻi karvonning kunduzi bosib oʻtgan masofasiga teng boʻlgan. “Al- Munjid” da ham bu soʻz qoʻnadigan koʻnalgʻa, hovli, karvon toʻxtaydigan joy maʼnosida qoʻllangan. P. Hamdamovning yozishicha, manzil noaniq oʻlchov birligi boʻlib, ikki joy orasidagi masofani anglatgan¹². “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da esa yoʻlining bir toʻxtash joyidan ikkinchi bir toʻxtash joyigacha boʻlgan masofani ifodalashi qayd etilgan¹³. Qadimdan forslardan manzil masofa oʻlchovini ifodalab, taxminan ruslarning 50- 60 verstiga teng boʻlgan. Bu soʻz “Boburnoma”da ham faqat bir oʻrinda qoʻllanilgan: Chun Sulton Ahmad mirzo murojaat qildi, ikki-uch manzildin soʻng mijozi etidol natijidin munharif boʻlib, muxriq, isitma tori boʻldi (BN 19, 74).

2. Predmet uzunligiga koʻra oʻlchovini ifodalovchi numerativlar. Bunday numertivlarga: gaz, qarich, quloch, qari, ushuqdin, otning qaptolida, koʻz etar yer, oʻq etar er, oychilik yoʻl, kunlik yoʻl, bir nishona otimi, belcha, koʻkusgacha, sochining uzunligicha kabi birliklar kiradi.

Quloch (t.). Bu soʻz Bn da koʻp uchraydi: Sabohi Istalifdin otlanib, sanjid darasining orasi bila oʻtib, Xoja Seyoronning yaqinida etganda, bir ulugʻ iylonkim, yoʻgʻonligi bilakcha va uzunligi bir quloch boʻlgay edi oʻlturildi (BN 220, 306). Bu qirgʻizlarda “ qulach”, qozoqlarda “qulash”, oltoylarda “qulash”, turklarda “qulach” uygʻurlarda “gʻulach” deb yuritilsa, ozarbayjonlarda “ guchag” deb yuritiladi. N. Xanikovning yozishicha, toʻliq quloch inson boʻyiga teng boʻlgan. A.K.Borovkov esa, quloch- tirsakdan barmoq uchigacha boʻlgan oraliq ekanligini qayd etadi. N. Hamdamov va X. Komilovlar ham quloch qadimdan predmetlarning uzunligini ifodalashda qoʻllanilgan uzunlik oʻlchovi ekanligini aytishadi.

¹² Хамдамов П. Ўзбек тилида нумеративлар. – Тошкент, “Фан”, 1983, 49-бет.

¹³ Ўзбек тилининг изохли луғати. I том.- М.: Рус тили, 1981, 445-б.

Quloch soʻzi ikki qoʻl orasidagi uzunlikni ifodalashini baʼzi adabiyotlarda ham koʻrsatilgan. Qadimdan Buxoroning togʻli rayonlarida quloch matolarini oʻlchashda qoʻllanilgan. Bizningcha, quloch inson boʻyiga teng degan fikr haqiqatga yaqinroq. Quloch ikki mustaqil soʻz, yani qoʻl oldiga och buyruq feʼlining qoʻshilishi vujudga kelgan. Inson boʻyining har xilliga qulochining har xil boʻlishiga olib kelgan. Masalan, oʻrta uzunlikdagi inson qoʻli bilan past boʻyli inson qoʻlining uzunligi bir- biridan farq qiladi.

GAZ (f.). Gaz soʻzi asarda, asosan birikma tarkibida uchraydi: Derlarkim, yigʻochdin- yigʻochga nishebga boqa bir gaz otimi uchar (BN 123, 193). Gaz termini Oʻrta Osiyo va Qozogʻistondagi turkiy (uzbek, turkman, qoraqalpoq, qirgʻiz, qozoq), shuningdek tojik, kurt, fors, hind singari tillarda gaz// gaz// gaz// kez koʻrinishlarida mavjud.

V. Hindtsning yozishicha, gaz (gez, gias) forchasiga bilak maʼnosini beradi. Gaz Eronda zar, zera, arash deb atalgan. Oʻrta asarlarda 1 gaz 62 cm gaz, XYII asrda esa Basrada 94 sm ga teng boʻlgan.

Hozirgi davrda Eronda gazni bir turi mavjud boʻlib, u 104 sm ga teng. Gaz va zar terminlari Oʻrta Osiyoda sinonim sifatida qoʻllangan. Etnografik maʼlumotlarga qaraganda, xoʻjalik ishlarida koʻproq gaz qoʻllanilgan. Yuridik hujjatlarda ikkala termin baravar qoʻllanilgan. Ammo, gaz zarga qaraganda koʻproq ishlatilgan. Oʻrta Osiyoda gaz 3 xil boʻlgan.

1. Barmoq uchlaridan yelkaga qadar, barmoq uchidan koʻkrak oʻrtasigacha (yoki burun toʻgrisigacha) boʻlgan masofa, barmoq uchidan ikkinchi yelkagacha.

2. Barmoq qalinligidagi oʻlchov boʻlib, bir gaz 24 barmoqqa teng boʻlgan.

3. Musht oʻlchoviga asoslangan. Bunda bosh barmoq tik koʻtarilgan holatda boʻladi. Bunda 1 gaz 7 mushga teng boʻladi. Baʼzi hollarda faqat yettinchi mushtning barmogʻi koʻtarilgan boʻladi. Xorazmda XIX asrlarda ikki xil gaz mavjud boʻlgan: biri yer maydonini oʻlchash uchun va ikkinchisi matolarni oʻlchashda qoʻllanilgan. Yer maydonini oʻlchaydigan gaz 101, 822 sm ga, matolarni oʻlchashda qoʻllaniladigani esa 58, 184 sm ga teng boʻlgan. Buxoroda XVIII asrda 49, 875 sm ga teng boʻlgan. XVI- XVII asrlarda koʻproq qurilishda

gaz 78, 74 sm ga teng bo'lgan. Bu kabi har xilliklar Samarqand, Toshkent, Farg'onada ham uchraydi¹⁴.

2.4. PREDMETLARNING JOYLASHGAN O'RNIGA KO'RA QIYMAT IFODALOVCHI NUMERATIVLAR

Predmetlarning joylashgan o'rniga ko'ra qo'llaniladigan numerativlarni olimlarimiz turlicha talqin qilganlar.

M. Mirzaev, S. Usmonov, I. Rasulovlar lagan, savat, qop, arava, mashina kabilarni butunning bo'lagini ifodalovchi numerativ so'zlar deb qaradilar. Bu so'zlar bizningcha butunning bo'lagini emas, balki predmetlarning joylashish o'rniga ko'ra numerativlik xususiyatga ega. Masalan, bir savat olma birikmasida butunning bo'lagi ifodalanmaydi, balki predmetning (ya'ni olmaning) taxminan qanchaligini anglatib kelayotgan savat tushuniladi. Bunday numerativ so'zlar aniq miqdorni bildirmaydi, balki umumiy sig'imni ifodalaydi.

Bu guruhga mansub numerativlarga quyidagilarni keltirish mumkin: ayog`/ ayoq, ko`za, xik, tulun/ tulum, qop, xarvar, sanduq, ortmoq, tuya/ teva, sabad, araba, yo`lak, ko`ra va xokazorlar.

AYOG`// AYOQ// OYOG` (t.). Bobur asarlarida bu so`z, asosan, idish, kosa, piyola, qadah ma`nosida qo'llanilgan.

1) Qadah ma`nosida: Kelurda aning uyida tushub, bir necha ayoq ichdi ( BN 227, 314 ). Deyildikim, har kishi turkicha aytsa, bir ayog` ichsun (BN 229, 316).

2) Kosa ma`nosida: shanba kuni bir ayoq suv ichtim ( BN 282, 377 ). Bir eski kaval po`stin topib keltirdi kiydim. Bir ayoq yumon oshi keltirdi, ichtim (BN 106, 174).

XIQ (f.). “ G`iyos ul- lugot ” da bu so`zga shunday tarif berilgan: Mesh ma`nosidaki, unda suv to`ldiriladi. Xiq suyuqliklarni solish uchun teridan tikilgan idish. Bu idishni qadimda odamlar hayvon terisidan tikishgan¹⁵. “Boburnoma”da

¹⁴ Хамдамов П. Юкоридаги асар, 78- б.; Муталибов С. Марфология ва лексика тарихидан кискача очерк.- Тошкент: УзССР ФА нашриёти 1965, 135- б.

¹⁵ Хамдамов П. Юкоридаги асар. 67-бет.

bu soʻz faqat bir oʻrinda qoʻllanilgan: Chogʻir anda andoq shoedurkim, kofirning boʻynida bir xiq chogʻir edi, suv oʻrniga chogʻir ichib yururlar (BN 123, 192).

V. Xintsning taqiqlashicha, qadimda xiq (burdyuk) asosan sharob oʻlchovi vazifasida kelgan. Farzand 1300 yilda xiqda quyidagicha belgilangan. Saroyni taminlash uchun buyruq faxriy sovgʻasi 5 paymon, har biri 10 tebris manidan ogʻirligi 50 man boʻlib, 260 dirham 41,6 litr. Prlarga eltib berish uchun xiq 4 paymon qilib belgilangan 40 man -33,3 litr.

2.5. PREDMET SATHINI (YER OʻLCHOVINI) IFODALOVCHI NUMERATIVLAR

“Boburnoma”da sathini ifodalovchi quyidagi numerativlar uchraydi: Jerib/jarib, tanov, bir urdu tushgunchalik yer, uy oʻrnucha-uy oʻrnucha yer, parcha yer, bir takiya miqdori yer, muhaqqar yer, yakandoz yer, bir oʻtunlik yer, bir xizonalik yer.

JARIB// JERIB (f.). Bu soʻz yer oʻlchovi maʼnosida qoʻllangan. V. Xitsning fikricha, soʻnggi oʻrta asrlarda bir jarib 100 kv kasabaga aniqrogʻi, 1592 kvmga teng boʻlgan bir kasaba- 399 sm, yoki baʼzi tarixiy asarlarda 1200 kvmga teng deb berilgan. E.A. Davidovichning yozishicha, jarib tanob bilan parallel qoʻllanilgan va Oʻrta Osiyoda bir jarib, 3600 kv gazga teng boʻlgan. Eronda esa jarib 1 gektarni ifodalagan. Forslar, asosan kichik jaribni qoʻllaganlar. Kichik jarib 960 kvmga dan 1600 kvmgacha boʻlgan sthni ifodalangan. X. Sultonovning “Boburiynoma” asarida jarib: eni 60 , boʻyi 80 metrdan iborat maydon deb qayd etilgan¹⁶. Koʻrinadiki, jarib turlicha davrlarda turli oʻlchovni ifodalagan. Asarda bu soʻz quyidagi matinda uchraydi: va har biriga sakson jarib (yer) bberurlar: mundin qirq mamobni mazru qilib hosili xud bari oʻzlari masarruf qilurlar va yaxshilar allarning ulufasiga xisob qilurlar va qalgʻon qirq maʼnobdan ortiq eksalar mol agar biz yuqoridagi fikrlarga suyangon holda, jaribni 1200 kvmga teng desak, unda yuqoridagi keltirilgan sakson jarib 96000 kvmga teng boʻladi. “Navoiy

¹⁶ Султонов Х. Бобурийнома.-Тошкент: Шарк, 1997, 122- б.

asarlari lug'ati" da bu so'zni taxminan 1 tanobga teng ekanligi qayd etilganligini hisobga olsak, E.A. Davidovichning fikrlari haqiqatga yaqinroq ko'rinadi.

2.6. BO'LAKNI VA JAMLIKNI IFODALOVCHI

NUMERATIVLAR

"Boburnoma"da butunning bo'lagini ifodalovchi numerativlar poliz mahsulotlari, meva, shuningdek, qo'shin yoki xazinaning bo'lagini ifodalab kelgan. Bular quyidagilar: bo'lak, hissa, shiq, qism, xumsi, kesim, karj, ajzo, chorak/ chorag, yarim, tikka, chahor dong, du dong, parcha, dahsi, dahchil.

CHORAK// Chorag (f.). Chorak butunning bir $1/4$ qismini anglatadi. Bu so'z, aslida, ikki mustaqil so'zning birikuvidan hosil bo'lgan: chor- to'rt, yak- bir.

Chorak// choyrak O'rta Osiyo hududida amalda ko'p qo'llanilgan og'irlik o'lchovi hisoblanadi. O'rta Osiyoning ayrim rayonlarida 5 pud, ba'zi joylarda esa 5 qadoq, yani 2 kita teng bo'lgan og'irlik o'lchovini anglatgan. Buxoro, Samarqand, O'rtepa, Toshkentda chorak dunimsirining $1/4$ bo'lagiga yoki manning $1/64$ qismiga teng bo'lgan. Farg'onada esa choraklar boshqacha bo'lgan. XIX asrning o'rtalarida chorak 2 putga, XIX asrning ikkinchi yarimida esa 4,5 puddan 5 putgacha bo'lgan. Demak, chorak 2 puddan 5 putgacha bo'lgan og'irlik o'lchovi hisoblangan. Bu so'z asarda quyidagi matinda uchraydi: Tarif qilganning yarmi, balki choragicha oshliq topilmadi (BN 223, 310).

CHAHOR DONG (f.). Bu birikma Bobur asarlarida pul miqdorining oltidan to'rt ($4/6$) hissasi ma'nosida qo'llangan: Yana Muzaffar Barlos edi... E'tibori bu martabada edikim, Sulton Husayin Mirzo qozoqligida aning bila mundoq shart qilib edikim har viloyatkim musaxxar bo'lsa, chahor dong mirzoning bo'lgay, du dong aning (BN 232, 153).

Ayrim numerativ so'zlar sanoq son bilan birgalikda kelib, sanalmishning to'dasini anglatadi. BN da jamlov ma'nosini ifodalovchi so'zlar ko'p. Ular shaxs, hayvon to'dasi, o'simliklarning ko'p yoki kamligini, dushman tomonidan olingan xazina miqdorini anglatadi. Ular quyidagilar: qabza, shuba, kulula, xarvar- xarvar, suruk-suuk, to'da, favsh, tang-tang, qator, tavila- tavila, pera.

Tupchoq ot egari bila; kamar shamshiri murassa ikki qabza; xanjari murassa yigirma besh xabza; qatora, murassa o`n olti qabza; jamdarai murassa

Qabza (t.): ikki qabza; pichoqband va bori oltuch qabza; chahori to`rt to`p; saqarlot chakman yigirma sekkiz to`p (BN273,254).

Bu so`z << Bobur asarlari uchun qisqacha lug`at >> da 1) birov narsaning dastasi, to`p; 2) tutam, bir tutam deb berilgan.

SURUK- SURUK (t.): Suruk- suruk fillarni filbondlari keltirub, peshkash qildilar (BN 245, 336). Misoldan ko`rinib turadiki, suruk so`zi hayvonlar, yani fillar to`dasiga nisbattan qo`llangan. Umuman turkiy xalqlarda qo`y- echki podasiga aytiladi.

2.7. VAQT MA`NOSINI IFODALOVCHI NUMERATIVLAR

“Boburnoma”da vaqt ma`nosini ifodalovchi numerativ so`zlar juda ko`p: asr, oy, yil, fasl, haftadagi kunlar, soat, minut, sekundini ifodalovchi pos, pahr, giri// gari, qismat, pul, daqiqa, namoz bilan bog`liq bo`lgan namozi shom, namozi peshin, namozi digar, bir sut pishimi ot minguncha fursat, qilich sug`urguncha fursat, tug`chi tug` bog`laguncha fursat va shu kabilardir. Vaqt ma`nosini ifodalovchi bunday numerativ so`zlarni ma`nosiga ko`ra quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1. Yil ifodalovchi numerativlarga asarda keltirilgan yil sanalarini keltirish mumkin. Masalan Shaybonixon bilan Sulton Ali Mirzo voqeyasi quyidagi sanada o`z aksini topgan: Voqei sanai sitta va tisa mia 906 (1500- 1501) yil voqealari (BN 72, 137).

2. Fasl ifodalovchi numerativlarga qish, zimiston, yoz, tobiston, kuz, pashkol, bahor. Fasl so`zi uch oyni anglatib, yilning to`rtidan bir bo`lagi ma`nosini anglatadi¹⁷. Hindistonda esa fasl to`rt oyni ifodalab, yilning uchdan bir bo`lagini bildiradi: Yana ul viloyatlarda to`rt fasltur. Hindistonda uch fasl bo`lur, to`rt oyi yoz dur, to`rt oyi pashkol, to`rt oy qish (BN 265, 358).

¹⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Том II, 37-бет.

PASHQOL (h.) soʻzi ham faslni ifodalab, bunga yomgʻirlik oylar kiradi¹⁸. Savan, bodun, quvor, pashqol: muvofiqi: saraton va asad va sunbula va mezon (BN 265, 356). Yana: Pashkol vaqtida pishadur (BN 260, 352).

BAHOR (f.): Bahori bisyor yaxshi boʻlur (BN 210, 270). Pashovarning nahisida bahor vaqti yaxshi gulzorlar bulardir (BN 298, 212).

3. Oyni ifodalovchi numerativlar juda koʻp uchraydi: Bobur Oʻrta Osiyo oy nomlari bilan Hindistonda qoʻllanilgan oy nomlarini chogʻishtiradi: chitar, baysok, jid, asor- hamal, hud, savr, javzo. Savan bodun kuvor kotik- saraton, asad, sunbula, mezon. Akhan, pus, moh, pogun- aqrab, qavs, jadiy dalv (BN 285, 358). Bulardan tashqari hijriy- qamariy yil oylari va hijriy- shamsiy yil oylari ham qoʻllanilgan. Masalan muharram, safar, hamal, safr, javzo va boshqalar.

4. Kunni ifodalovchi numerativlar. Bular shanba, yakshanba, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, odina, char, aytvar, sumvar, mongalvar, budvor, brisspartvor, sukrvor. Hafta soʻzi ham asarda koʻp qoʻllanilgan: Keshga kelgandin bir- mirzo Samarqandni Shaybonixonga berdi (BN 7,30). Bu misolda hafta soʻzi son bilan birga kelib, 6- 12 kun oraligʻidagi vaqtini ifodalab kelgan.

5. Soat, minut, sekundini ifodalovchi numerativlar. Bunday numerativlarni quyidagi guruhlarga ajratiladi:

a) aniq vaqtini ifodalovchi numerativlar pos, pahr, pul, soat, daqiqa, gari// gri, qismat va boshqalar orqali ifodalanadi.

Hindcha pahr va forscha pos soʻzlari bir- biriga sinonim. Lugʻatlarda pahr kecha va kunduzning $1/4$ qismi, yani 3 soatga teng. Agar kechani 12 soat kunduzni 12 soat deb, kecha va kunduzni 4 ga boʻlsak shunda 3 soat kelib chiqadi. Yoki kecha- kunduzning $1/8$ qismi deb olish ham mumkin. Baribir, natija 3 soatga teng boʻladi. “Boburnoma”da quyidagi matnda uchraydi: Kechaning uch pahri boʻla yovushub edikim, xabar kelturdilarkim, yogʻiy xabar topqoch, bir- biriga baqmay burilib qocharlar (BN 237, 328); Bir pahr yovushib edikim, Anvardin otlanildi (BN 428, 429). Pahr soʻzi gapda son bilan yoki kecha, kunduz soʻlaridan biri bilan kelsagina aniq vaqtini ifodalaydi. Pahr vaqt oʻlchov birligi sifatida soat

¹⁸ Назаров Х. З. М. Бобур асарлари учун.

qiymatini ifodalab, bugungi kunda ham Hindistonga xalq tilida saqlanib qolgan. Bu soʻz pos soʻziga nisbatan koʻproq qoʻllanilgan: Kechaning uch posigʻacha yoʻl kelduk (BN 105, 172). Navoiy asarlarida esa vaqt maʼnosida pos soʻzi qoʻllangan. Pahr va pos soʻzlarining sinonim ekanligi haqiqatga yaqin. Chunki lugʻatlarda ularning ifodalagan vaqt birligi bir xil.

B) Taxminiy vaqtni bildiruvchi numerativlar. “Boburnomada”da namoz bilan bogʻliq numerativ birliklar koʻp uchraydi: Namoz shom, namoz digar, namoz, peshin, ikki namoz orasi, digar, peshin, shom, xufton, juma namoz, iydi fitr, namoz shom bila namoz xufton, namoz bomdod, namoz digar bilan namoz shom orasi, fars vaqtidin namoz peshingacha, zavvol vaqti, sunnat vaqti naqora vaqti kabilar. Bularan Tashqari, choshtgoh, tush vaqti, axshom, sahar, tonglasi, tong boshida, tongdin burun kabilar mavjud.

TONGDIN BURUN (t.): Ushbu kun tongdin burun oʻtlanib, yolgʻiz tushlanb kelib, Joʻn daryosida ettim (BN 331, 432). Bu brikma orqali ertalabgi soat 4- 5 oraligʻini bilish mumkin.

TONG BOSHIDA (t.): Obopurdin koʻchub, men tong boshida Chandvor qoshidin kelib, kemaga kirdim (BN 328, 429). Demak ertalabgi soat 5 nazarda tutilgan.

Shuningdek, ogʻzaki nutqda keng qoʻllanadigan ayrim numerativlar ham shu guruhga mansub.

Oʻzbeklardagi “Bir choy qaynagunga qadar boʻlgan vaqt”, Qozoqlardagi “Sut pishgunga qadar boʻlgan vaqt” vaqt birligiga teng boʻlib u yarim soatni ifoda etgan. Bu holat Bobur asarlarida ham oʻz ifodasini topgan. Masalan, “Ot mingunchalik fursat”, “Qogʻoz va ajzoni yigʻishtirgunchalik fursat”, “Bir sut pishimiga yovuq”, “Bir sut pishimi burunroq”, “Tugʻchi tugʻ bogʻlaguncha fursat”, “Qilich sugʻirgʻuncha fursat”, “Xizona ulashguncha fursat” kabi birikmali iboralar asarda koʻp qoʻllanilib, maʼlum vaqt maʼnosini ifodalab kelgan.

Asarda shunday birikma holdagi soʻzlar borki, ular, asosan, kecha-kunduzni, yani sutkani ifoda etadi: Ul kecha tong otguncha va ul kuni oftob botkuncha va yana kechasi tongdin burunroq Margʻinonning bir yigʻochiga

yetganda, Vaysbek va ba`zilar taraddud qilib, arzga yetkudilarkim, Ali Do`st ne nav yomonliq qilg`on kishidur, orada bir navbat, ikki navbat kishi bormay va kelmay, guftug`o` va ahdu shart bilmay, ne etimod bilan boradurbiz? (BN 119, 57).

2.8. PREDMETLAR HAJMINI IFODALAGAN

NUMERATIVLAR

“Boburnoma”da qo`llangan ayrim numerativ so`zlar taxmini miqdor o`lchovi sifatida qo`llanilgan. Bularga shafaq, kafi dastchi, gurunch pilali tutam ushoq, parcha va boshqalarni kiritish mumkin.

TUTAM (t.). Bu so`z narsalarning tutam yoki siqimiga sig`ar miqdorini ifodalaydi: O`zi der edikim, birovning inchga poychasi sinib, bir tutamcha yeri reza- reza bo`lib edi, etini yorib, oyoq so`ngaklarini tamom olib, so`ngak o`rniga doruni un qilib soldim (BN 99, 166).

Kafi dastcha (f.). Bu izofali birikma qo`lning bilak uchidan barmoqlargacha bo`lgan masofani ifodalaydi: Bovujudi bu zahi Samad andoq choparkim, Shahsuvarning boshidin kafi bastcha parcha so`ngakni qilich olib ketar (BN 61, 123).

2.9. SUYUQLIK MIQDORINI VA DONALIK MA`NOSINI IFODALOVCHI

NUMERATIVLAR

Asarda suyuqlik miqdorini ifodalovchi so`zlar ham uchraydi. Ular, asosan suvga nisbatan suyuqlik o`lchovi sifatida qo`llanilgan. “Boburnoma”da suvga nisbatan tegirmon, tarnov, hissa kabi so`zlar qo`llanilgan.

Tegirmon (t.). Bu so`z asarda juda ko`p uchraydi. Yana bu bog`ning suvi ozdur, munga bir tegirmon suvni sapqun olib, keltirmoq kerak ( BN 330, 430 ); Bir arg`amchi baland qiyodin bir tegirmon suyi sharildab tushadur (BN 316, 416);

Tarnov (t.). Bu so`z BN da ma`lum hajmni ifodalaydi: To`qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim bir eridin ham chiqmas (BN 6, 60).

Tarnov bugungi kunda ham Qashqadaryo, Qarshi, Beshkent, Toshkentda tannov, Kovchin, Andijon, Farg`onada tarnov shaklda qo`llanib, suv oqib o`tish

uchun metal yoki yog'ochdan yasalgan ariqcha shaklidagi predmetga nisbatan qo'llanadi. Samarqand va Navoiyda nov shakli mavjud¹⁹.

Ma'lumki,- ta affiksi donalikni ifodalaydi. Bundan tashqari, bosh, tup, dona kabi so'zlar ham son bilan birga kelib, donalikni ifodalab keladi. Bunday numerativlar ma'no ifodasiga ko'ra bir- biridan farq qiladi. Masalan nafar, jon so'zlari son bilan birga kelib, jonli narsalarga, asosan, insonga nisbatan numerativlar vazifasini ifodalasa, bosh, tuyuq so'zlari hayvonlarga nisbatan, tup so'zi esa daraxtlarga, o'simliklarga nisbatan numerativlik vazifasida keladi. BN da donalikni ifodalovchi quyidagi numerativ so'zlar qo'llangan: tup, to'p, bosh.

TUP (t.). Bu so'z sanoq son bilan birgalikda, turli xil o'simlik va daraxtlarning miqdorini ifodalaydi: Bizning bog'larda uch- to'rt tur bor ekandur, so'ngra bildim .

XIII-XIV asrlardagi adabiy yodgoriklar tilida bu so'z daraxtlarga nisbatan qo'llanilgan. Bugungi kunda ham bu so'z ayni ma'noda qo'llanadi.

2.10. SANOQ SONLARIGA SINONIMLASHGAN NUMERATIVLAR

“Boburnoma”da sonlarni ifodalovchi numerativ so'zlar juda ko'p o'rinlarda qo'llanilgan. Ba'zilar, juda yuqori qiymatini ifodalab kelgan. Asarda sonlarni ifodalovchi quyidagi numerativlar qo'llanilgan: Tuman, lak, kurur, karb, nil, padam, song, arb.

TUMAN (t.): Bu bir oy- ikki oyning ichida shoyatkim uch yuz tuman kepakiy olildi ekan (BN 167, 249). Tuman 10000 (o'n ming) son qiymatini ifodalaydi. Asarda pul qiymatini ifodalab kelgan.

Tuman ba'zi manbalarda tuman shaklida ham qo'llanilgan. 10 ming qiymatini ifodalagan, “Lug'atnoma”da tumani mo'g'il tilidan olinganligi qayd etilgan. Qadimda 10 ming askar boshlig'ini ham Amiri tuman deb atashgan. Shuningdek, 10 ming pulni ham tuman deb yuritishgan. Hatto katta to'dani ham tuman deb atashgan. Ba'zi o'rinlarda guruh ma'nosida ham qo'llanilgan. Bu holat

¹⁹ Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: “Фан”, 1971, 250-бет.

tumanning katta qiymat ifodalaganligi sababli. Turkiy xalqlarda esa uyezdga, rayonga, jamoaga nisbatan tuman soʻzi qoʻllanadi.

Tuman Eronda 1932- yilga qadar pul birligi sifatida muomalada boʻlgan.

KURUR (H.) hindcha oʻlchov birligi boʻlib katta miqdorni, yani 500000 ni anglatadi. Asarda asosan, pul qiymatini ifodalab kelgan. Eroniy kurur ham 500 ming qiymatini ifodalaydi. Hindlarda kurur 10 millionga teng boʻlgan qiymatga ega. Bu esa 100 lak boʻladi. Hindlarning 1 kururi Eronning 20 kururiga teng keladi. Shuning uchun hindlar 100 lakni 1 kurur deb atashgan. Asarda ham kurur 500 ming qiymatni ifodalagan. Mutloq koʻplikga nisbatan ham kurur soʻzi qoʻllanilgan. BN da quyidagi matnda uchraydi: Sarvar sarkori: bir kurur ellik besh lak oʻn yetti ming besh yuz olti yarim tanga (BN 358, 466). Shuni ham taʼkidlash joizki, sanoq sonlarga sinonim sifatida qoʻllangan numerativlardan kurur, karb, arb, nil, padam, soʻzlari ham bugungi kunda Hindistonda yuqoridagi keltirilgan qiymatni saqlagan holda qoʻllanadi.

Bobur zamonasida qoʻllangan numerativlarning bir qismi taxmini oʻlchov vositasi sifatida qanday vazifada qoʻllangan boʻlsa aynan oʻsha vazifada qoʻllanib kelmoqda. Qadam, kuloch kabi numerativlar qurilish, sanoat, qishloq, xoʻjaligi texnikasida oʻziga xos yangi vazifada qoʻllanib, oʻz faoliyatini davom ettirmoqda.

“Boburnoma”da qoʻllanilgan numerativlar tahlili orqali quyidagi xulosalarga kelindi: Oʻzbek adabiy yodgorliklari tilini bugungi kun talabalari darajasida ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi oʻzbek adabiy tilining taraqqiyotini va ifodaviy imkoniyatlarini belgilashda “Boburnoma” asosiy va noyob manba hisoblanadi.

Ushbu manba oʻzida qoʻllanangan numerativ birliklarning kelib chiqishi va leksik- semantik xususiyatlari haqidagina maʼlumotlar berib qolmay, balki XV- XVI asrlarda Markazi Osiyo, Afgʻoniston va Hindistonda amalda boʻlgan oʻlchov tizimi haqida mukammal tasavvur beradi.

Bizning bu borada olib borgan izlanishlarimiz mazkur birliklarning asosiy qismini turkiy- yogʻoch, olmos, botmon, quloch, qari, ortmoq, tanga, yormoq, qop, teva kabi; foscha- shohruhiy, rotiba, puishtivora, ser, xarvar, sabad, farsax// farsang

kabi; arabcha- kuruh, mil, dinor// dinar, dirham, qadam, fulus, donge, misqol, manzil, ashrafiy, shari, man kabi va hidcha- rati, mosha, to`la, miyonosa, tong, kuruh, karb, arb, padam kabi o`lchov birliklari tashkil etishini ko`rsatdi.

O`z davrida aniq qiymat ifodalagan numerativlar hududi qo`llanishiga ko`ra bir- biridan miqdori aniqligi va qiymati bilan muayyan tafovutlarga ega bo`lgan, ammo har bir hudud uchun aniq qiymatni ifodalagan. Ba`zi hollarda boshqa hududning o`lchov birligi ikkinchi bir hudud uchun ham qo`l kelgan. Natijada hududiy tarqalish jarayonida qiymat ifodasi o`zgarib borgan. Ularning ayrimlari davrlar sinovida bardosh berib, o`z qiymatini yuqotmagan, ayrimlari esa davrlar o`tishi bilan muayyan semantik o`zgarishga uchragan.

Pul qiymatini ifodalovchi numerativlar qadimda faol qo`llanib, hududi jihatdan bir- biriga yaqin qiymatda bo`lgan. Og`ilik o`lchoviga mansub numerativlarning ayrimlari aniq qiymat ifodalagan bo`lsa, ba`zilari taxminiy o`lchov birligi vazifasida qo`llangan.

Hindcha numerativlar miqdoran yuqori sonlarni, vaqt ma`nosini, pul qiymatini, og`irlik, uzunlik va masofa o`lchovlarini ifodalagan. Bobur ayrim o`rinlarda Hindistonda qo`llanuvchi numerativ birliklarni Markaziy Osiyoda qo`llangan numerativ birliklar bilan solishtirib, ularning aniq qiymatini belgilashga erishgan.

Asarda qo`llanagan numerativlarning muayyan guruhi sanoq sonlar bilan kelsagina aniq qiymatga ega bo`ladi, ayrimlari esa asosan taxminiy miqdorni ifodalashga xoslanagan, ya`ni hajm, jamlik ifodalovchi numerativlar taxminiy qiymatga egadir.

Manba tilida vaqt ma`nosini ifodalovchi numerativlar har xil qiymatga ega. Ular orasida muayyan harakatni bajarishga sarflangan vaqtga qiyosan yuzaga kelgan numerativ birliklar, shuningdek, namozlarning o`qilish vaqti bilan bog`liq tarzda yuzaga kelgan numerativlar bir muncha faoldir. Ayrim numerativlar takror tarzda qo`llanib, jamlik, to`da, uyum ma`nolarini ifodalaydi, shunga muvofiq ravishda ularda taxminiylik ustun darajada.

“Boburnoma”da qoʻllangan numerativ birliklarning muayyam guruhi oʻsha davrda boshqa turkiy tillarda ham faol ishlatilgan. Bunday birliklarni hududiy va davrlar asosida oʻrganish ularning qiymatini keltirib chiqarishga yordam beradi. Oʻz navbatida, kiritilgan aniqliklar mumtoz adabiyotlar boʻyicha tuziladigan lugʻatlarga yaʼni dalillar berishi mumkin.

Mazkur manbada qoʻllangan numerativlarning ayrimlari aniq miqdor ifodalamasa ham, asar yozilgan paytdagi va undan burungi vazifasini oʻzgartirgan emas, ular xalq tilida keng istemoldadir. Ularning bir qismi esa nutqning ifodaviyligi va taʼsirchanligini taminlashda turli uslubiy vazifalarda faol ishlatiladi. Hatto, ayrim numerativlar (qadam, kuloch kabilar) texnik vositalarining u yoki bu jarayonda ishtirok etuvchi qismlari orasidagi masofa va oraliq oʻlchami tushunchalarini ifodalashga xizmat qilmoqda.

1918- yilda Jahon metrik sistemasining joriy etilishi XV- XVI asrlarda keng qoʻllangan numerativ soʻzlarning aksarini isteʼmoldan chiqarib qoʻydi; ularning ayrimlarini arxaik soʻzlar qatoriga kiritdi; ayrimlarining esa faoliyat doirasini birmuncha chekladi, yani ular taraqqiy asrlarda davr ruhini berish uchungina qoʻllanadi.

III BOB. VAQT VA O`LCHOV BIRLIKLARI BILAN BOG`LIQ LEKSEMALAR TAHLILI

O`zbek tilida vaqt va o`lchov ma`nolari mustaqil til birliklari ( semema ) yoki boshqa til birliklari semantikasining tashkil etuvchisi ( sema ) sifatida mavjud. Vaqt va o`lchov semantikasi o`zining leksik, grammatik, fonetik ifodalanishlariga ega. O`zbek tilshunosligida vaqt ma`nosi payt ravishlari, vaqt ma`noli otlar, sifatlar, olmoshlar, fe`llar, yuklamalar kabi morfologik, payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruksiyalar singari sintaktik yo`nalishlarda o`rganilgan yoki qayd qilingan. Leksik birliklarning temporal ma`nosi haqida xususiy va u yoki bu munosabat bilan bildirilgan fikrlar uchraydi. Vaqt sememasi va semalarining tarkibi, ularning sistema hosil qiluvchi imkoniyatlari, vaqt semantikali makro-va mikro sistemalar, bularning tuzilish xususiyatlari, vaqt ifodalovchi birliklarining lug`aviy sistemada tutgan o`rni, ko`lami kabi masalalar o`z yechimlariga ega emas. So`nggi yillarda jahon tilshunosligida matn muammosiga qiziqish kuchayib ketdi. Bu qiziqish sistemalilikni yuqori sathda birliklaridan ham izlash, til va nutqning statik va dinamik sistemalarini farqlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Temporal lug`aviy birliklarning nutqiy voqelanish imkoniyatlari ham hozir shaklanib borayotgan matn tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir.

Leksik sathda oid temporal birliklarining butun va qism, umumiy va xususiy belgilarni o`rnatish, temporal lug`aviy birliklar paradigmalarining sintagmatik imkoniyatlarini tadqiq etish kabilarining amalga oshirilmaganligi ushbu ishningning dolzarbligini belgilaydi.

Til o`zida rang-barang olamning asliga mos ravishda in`ikos ettirishga harakat qilar ekan, bunday holatda til uchun vaqtining barcha turlarini hayotiy (empirik) va ilmiy tushunchalar asosida aks ettirishdan boshqa yo`l yo`q²⁰. Tildagi vaqt ifodalanishlari ni o`rganish uchun, avvalo, vaqt semantikasining denotatini o`rganish maqsadga muvofiqdir. Shu boisdan tadqiqotning birinchi vaqt tushunchasining taraqqiyoti, unga bo`lgan hayotiy va ilmiy munosabatlar, G`arb va

²⁰ Нурмонов А. Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Ўзбек тили ва адабиёт. 1995, 27-30-бетлар.

Sharq faylasuf- mutafakkirlarning vaqt haqidagi qarashlari, vaqtning zamonaviy tavsifi asosida vaqtning nima ekanligiga (denotatiga) e'tibor berildi.

Vaqt haqidagi turli qarashlarning tadrijiy taraqqiyoti zamonaviy vaqt tushunchasining aniqlanishiga olib keldi. Unga ko'ra, vaqt (fazo bilan birga) materiyaning mavjudlik shakli bo'lib, moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarining turli bosqichlari, bir- biridan ajralganligi, ularning davom etishi, rivojlanishini bildiradi. Vaqtning belgilari sifatida esa bir o'lchamlilik, qaytarilmaslik, cheksizlik, davomiylik, uzluklilik, uzluksizlik, bo'linuvchanlik, ketma-ketlik, bir jinslilik kabi xususiyatlar tan olinadi.

Ma'lumki, til qurulishida ishtirok etadigan va unda muayyan tuzilishiga, leksik, morfologik, sintaktik sistemalarda aniq ifodalanishga ega bo'lgan tushunchagina ong kategoriyasi bo'la oladi.

Vaqt ham ong kategoriyasi bo'lib, u til qurilishda ishtirok etadi va sistema hosil qiladi. Baqtning tilda sistema sifatida ifodalanishi insonlarning dunyo vaqt strukturasini anglashi (gnoseologik aspekt), bu haqda o'zgalarda ham axborot berishi (kommunikativ aspekt) va tilning vaqt-makonda mavjudligi (ontologik aspekt) kabi omillar bilan bog'liqdir. Vaqtning ongda in'ikos etishi asosida tilning temporal funksional- semantik kategoriyasi shakllanadi. Tilda vaqtni ifodalovchi leksik, morfologik, sintaktik kabi ifoda tizimlariga ega bo'lgan ko'p bosqichli temporal maydon mavjud. Umumiy maydonning yadrosini grammatik vaqt ma'noli shakllarning yopiq sistemasi bo'lgan fe'l zamonlari tashkil etadi. Vaqt ma'nosini ifodalashda iyerarx maydonning birliklari o'zaro hamkorlik qiladi. Masalan, leksik birliklar yadro birliklari ifodalagan mavhum vaqt ma'nosini aniqlashtiradi. Leksema va frazemalarda vaqtga bo'lgan hayotiy subyektiv munosabatlar aks etadi. Periferiyada ham vaqt ifodalanishi o'ziga xos sistemani tashkil etadi. Xususan, lug'aviy birliklar " vaqt " ma'nosi " vaqt " semasi yyetakchi bo'lgan, bevosita vaqt ifodalovchi payt ravishlari tashkil etadi. Yadrodan keyingi birlamchi qurshovga payt otlari mansub bo'ladi. Bu kabi leksemalarda predmetlik semasi " vaqt " semantik elementiga nisbattan yetakchi hisoblanadi. Keyingi qurshovga payt ma'noli sifat, olmosh, ravish, ko'makchi, yuklamalarni

kiritish mumkin. Uchinchi periferiyaga esa tong chog'i, kuz payti kabi so'z birikmalari va so'z (qo'shma so'z) oralig'idagi gibriddik birliklar mansubki, bular til va nutq hodisalari bog'lanishidagi oraliq uchinchilardir.

Xullas, vaqt va o'lchov birliklari o'zbek tilining barcha sathlarida o'z ifodalanishlariga ega bo'lib, har bir sath va ularning birliklari payt ma'nosini o'ziga xos yo'sinlarda aks ettiradi.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi bir yuz saksonga yaqin vaqt semantikali ot leksemalar tahrir qilinganida, mazkur leksemalarning vaqt ifodalash imkoniyatlarining turlicha ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa "vaqt" semasining turli sememalar tarkibida turlicha o'rin va mavqelarda kelishi bilan bog'liqdir.

O'zbek tili vaqtini bevosita atovchi va vaqtga aloqador predmet, voqea hodisalarni nomlovchi ot leksemalarga ega. Vaqtini bevosita predmet sifatida nomlovchi ot leksemalarning semik tarkibida "vaqt" semasi yetakchidir. Vaqt bilan aloqador predmet, voqea- hodisalarni nomlovchi ot leksemalarda esa "vaqt" semasi quyiroq mavqeda joylashib, u o'zidan umumiyroq semalarni aniqlab keladi²¹.

Vaqtini predmet sifatida nomlovchi payt otlarini farqli semalari asosida sakkiz guruhga ajratish mumkin: sof vaqtini mavhum predmet sifatida ifodalovchi otlar (vaqt, payt, mahal, davr...) vaqt o'lchovi otlari (sekund, minut, soat..), sutka qismlari otlari (kun, tong, chohgoh...), hafta kunlari otlari (dushanba, seshanba...), otlari (bahor, yoz...), vaqtning o'rnini ifodalovchi payt otlari (azal, ibtido, kelajak...); muayyan ishning maqsadga muvofiq yoki o'ziga xos ro'yobga chiqish vaqtini ifodalovchi otlar (fursat, mavrit, xonasi...) kabi.

Vaqt bilan bog'liq predmet, voqea-hodisa, holatlarni ifodalovchi otlarning semantik strukturasida "vaqt" semasining yetakchiligi kuzatilmaydi. Bunday temporal otlarni o'n bir mavzu guruhga ajratish mumkin: vaqt hisobini anglatuvchi otlar (kalendari, sana), marosim otlari (uch, yetti, yigirma...), vaqt bilan bog'liq ovqatlarni ifodalovchi otlar (saharlik, nonushta...), bayram va tadbirlarni ifodalovchi vaqt semantikali otlar (navro'z, kecha, arafa...), muayyan vaqt bilan bog'liq nashrlarni ifodalovchi otlar (ro'znoma, oynoma...), so'zlarning qo'llanish

²¹ Хакимова М. Юкоридаги асар. 32-бет.

zamonini ifodalovchi otlar (neologizm, arxaizm...), odamning yosh turlarini nomlarini ifodalovchi leksemalar (ninni, bola, chol...) qarindhoshlikni ifodalovchi otlar (farzand, aka, opa...), tabiiy va ijtimoiy hodisalar bilan bog`liq muhim davrlarini ifodalovchi baynalminal otlar ( paleolit, mezolit kabi ), vaqt bilan bog`liq musoboqa, tomoshalarining qismlarini ifodalovchi otlar (start, final kabi), vaqt bilan bog`liq holat bildiruvchi otlar ( bolalik, o`spirinlik, yigitlik...), baynalminal otlar (paleolit, mezolit...), vaqt bilan bog`liq musoboqa tomoshalarning qismlarini ifodalovchi otlar ( start, final... ), vaqt bilan bog`liq holat bildiruvchi otlar bolalik o`spirinlik, yigitlik...).

Vaqt ifodalovchi ot leksemalar sememik tahlil qilinganda mavjud bo`lgan sinonimik antonimik, giperonimi, partonimik iyerarxik, graduonimik, ma`noni torayishi va kengayishi kabi hodisalar izohlanadi. Olingan natijalar quyidagi jadvallarda aks ettirildi:

1-Jadval. Bahor leksemasi sememalarining semik tarkibi

№	Bahor 1	Bahor 2	Bahor 3	Bahor 4	Bahor 5
1	Yil	Umr	Ichki dunyo	—	Umr
2	Fasl	—	—	—	—
3	Qishdan keyin	Bolalikdan keyin	—	—	—
4	Yozdan oldin	O`rda yoshdan oldin	—	—	—
5	Tabiat	—	—	Jamiyat xodisasi	—
6	Yashnagan	Yashnagan	Yashnagan	Yashnagan	—
7	Gulgun	Gulgun	Gulgun	Gullagan	—
8	Uyg`onish	—	—	Uyg`onish	—
9	Davr	Davr	Vaqt	Davr	Bir yil
10	—	Inson	Inson	—	Inson

Payt ravishlari “vaqt” ifodalovchi lugʻaviy sistemaga “vaqt” semasi bilan kiradi va ayni paytda ularning oʻzlari ham mikrosistemalardan iborat boʻladi. Bu mikrosistemalar sof vaqtni ifodalaydi. Payt ravishlarining semantik mundarijasida “vaqt” semasi yetakchidir. Payt ravishlarini vaqt turlarini ifodalashiga koʻra oʻn guruhga ajratish mumkin: kelasi zamonni ifodalovchi payt ravishlari (ertaga, keyin...), oʻtgan zamonni ifodalovchi payt ravishlari (avval, ilgari, kecha...), hozirgi zamonni ifodalovchi payt ravishlari hozir, hozirdan, halitdan), inkor paytni ifodalovchi payt ravishlari (hech vaqt, sira, minbad...), gumon vaqtni ifodalovchi payt ravishlari (allaqachon, erta- indin...), uzluksizlikni ifodalovchi payt ravishlari (doim, hamisha; umrbod...), uzlukli vaqtni ifodalovchi payt ravishlari (baʼzan, goho, unda- munda...), chegarali muddatni ifodalovchi payt ravishlari (vaqtincha, buguncha...), sutkaning turli vaqtlarini ifodalovchi payt ravishlari (ertalab, kunduzi, kechqurun...), vaqt oʻrnini ifodalovchi ravishlar (oxirida, oldindan...)²².

Oʻzbek tilida shunday holat ravishlari borki, ularning semantik strukturasida vaqt semalari yordamchi semantik element sifatida ishtirok etadi. Holat ravishlari sememalarini ularning tarkibida mavjud boʻlgan vaqt semalarining oʻziga xos xususiyatlariga koʻra quyidagicha tasnif etish mumkin: “nooʻrin vaqt” semali holat ravishlari (bevamrit, bemahal...), “kutilmagan vaqtda” semali holat ravishlari (shartda, toʻsatdan...) “ayni bir vaqtda” semali holat ravishlari (yoppasiga, birga...), “vaqt miqdorini anglatuvchi” semalarga ega boʻlgan holat ravishlari (uzoq, qisqa, oz, kop...), “izchil vaqtda” semasiga ega holat ravishlari (birin – ketin, ketma- ket, navbatma- navbat...), “Oʻtmish” semalik holat ravishlari avvalgiday, burungicha, qadimgining bajarilish vaqti meʼyoriga nisbat beruvchi holat ravishlari (tez, darrov, sekin, barvaqt, erta kabi), Oʻzbek tilida “qisqa muddatda” semalik miqdor ravishlari ham mavjuddir. Bular oz muddatni ifodalovchi bir pas, bir pastda, andak, xiyol, kabi soʻzlardir.

²² Ахтамова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи кумакчи формалар// Узбек тили ва адабиёти.- 1988.- №1- Б. 47- 51.;

Bildirilgan vaqtning nutq lahzasiga munosabatida ko`ra ravishlari ikki turga ajratiladi: nutq lahzasida bo`lmagan payt ravishlari va nutq lahzasi ta`siriga uchragan payt ravishlari. Nutq lahzasi ta`siriga uchramagan payt ravishlari ikki turga bo`linadi: birinchi guruhdagi nutq lahzasiga munosabatda bo`lmagan ravishlarning ma`nolari butun vaqt davomiyligini qamrab oladi. Bu leksemalarning semantik strukturasining tuzilishida nutq lahzasi ta`siri kuchsizlanadi. Bunday leksemalar bildirgan vaqt ma`nosi uchala zamonga ham taaluqlidir. Ularga doim, har doim, hech qachon, umrbod kabi leksemalar misol bo`ladi. Ikkinchi guruhga nutq lahzasiga munosabatda bo`lmagan ravishlarning yana bir turi ajratiladi, bunday ravishlarga kunda, oylab, oqshomlab, saharlab, kechqurun, kechasi kabi leksemalar kiradi. Bu ravishlar vaqt davomiyligining biror qismini ifodalaydi va ularning semantik strukturasida zamonga munosabat belgilari bo`lmaydi. Ushbu leksemalar bildirgan vaqtning nutq lahzasiga munosabati kontekstda fe`l zamon shakllari yoki qo`shimcha leksik vositalar bilan aniqlanadi.

Nutq lahzasi ta`siriga uchragan payt ravishlarning semantik tuzilishida nutq lahzasi asos bo`lib xizmat qiladi. Bu ravishlar bildirgan vaqt nutq so`zlanib turgan paytni, undan oldingi yoki keyingi, vaqt davomiyligini yoki uning biror qismini anglatadi. Bularga uch zamonga bo`linuvchi kecha- bugun – ertaga, avval- hozir- keyin kabi hamda ikki a`zoli zidiyatdagi kechasi- kunduzi, dastlab- so`ngra kabi va faqat bir zamonni ifodalovchi hanuz, allaqachon, o`sha- o`sha kabi leksemalar misol bo`la oladi.

Rus tilshunosi T. P. Lomtev ishlab chiqqan prinsip asosida ilk marta payt otlari va ravishlarining semantikasi differensial semantikasi elementlarga ajratib, kodlashtirishga harakat qilindi. Bunday o`rganish usulida nom (nomema), nomining mazmuni (ma`nosi, semema), nomining predmeti (denonati), bosqichi bo`lish, bo`linuvchi, bo`linma to`plamlar (ko`pliklar) va differensial semantikasi elementlari kabi tahlil birliklari bilan ish ko`riladi. Biz ushbu ishimizda payt otlari va ravishlarning ma`nolarini muayyan semantik elementlarning yig`indisi sifatida o`rganishga hamda ushbu semantik strukturalarni arifmetik raqamlarda kodlashtirishga harakat qildik. Payt otlari o`zlarning butun- qismi, graduonimik va

nisbatlanish (iyerarx) bogʻlanishlar asosida bosqichlari tasniflanish mumkin. Ushbu tasnifda boʻlinuvchi koʻplikni “K” deb belgilab olamiz. Tasnif maʼlum bir belgi asosida amalga oshiriladi. Hosil boʻlgan xususiy koʻpliklar raqamlar bilan belgilanib, keyingi tasnif bosqichida ular navbatma- navbat boʻlinuvchi koʻpliklar boʻlib keladi. Tasnifning eʼtiborli tomoni shundaki, tasnifning har bir bosqichida boʻlinuvchi koʻplikka xususiy koʻplikning raqami qoʻshilib borilaveradi. Soʻnggi pogʻonada hosil boʻlgan raqamlar ketma- ketligi muayyan bir leksema, sinonimik qator yoki eng kichik xususiy koʻplikning formulasi boʻlib hisoblanadi. Tasnifning soʻnggi pogʻonasida hosil boʻlgan leksema sememasiga yuqori pogʻonadagi boʻlinishlar asosida taʼrif beriladi va uning semik tarkibi aniqlanadi. Soʻngra esa kodlar yordamida leksemalarni aniqlab chiqish mumkin: K 1112- oʻlchovli sof vaqt oti, aniq oʻlchov birligi, eng kichik oʻlchov birligi: sekund, K 1112- oʻlchovli sof vaqt oti, 60 sekunddan iborat aniq oʻlchov birligi: minut, K 1113- oʻlchovli sof vaqt oti, 60 minutdan iborat aniq oʻlchov birligi: soat, K 1114- sutka kabi .

3.1. VAQT IFODALOVCHI LUGʻAVIY BIRIKMALARNING MATN SHAKLANTIRISH IMKONIYATLARI

Hozirgi davrda matn tilshunosligi (tekst lingvistikasi) oʻzining shaklanish bosqichini kechirmoqda.

Maʼlumki, til birliklari paradigmatic va sintagmatic munosabatlar asosida faoliyat koʻrsatadi. Ularning ichki semantikasi shunday aloqalarga kirisha olish belgilari mavjud boʻladi. Paradigmatic belgi til birliklarining nutq uchun tanlanish imkoniyati boʻlsa, sintagmatic belgi shu tanlagan til birligining boshqa til birligi bogʻlana olish (valentlik) belgisidir.

Odatda ikki til birligining bogʻlanishidan hosil boʻlgan butunlik yoki qurshov kontekst deyiladi. Bunda sintaktik sathda soʻz birikmasi va gap toʻgʻri keladi. Sintagmatic bogʻlanishlar ikki sodda gap orasida ham voqe boʻladi. Buning natijasida qoʻshma gap vujudga keladi. Oʻz navbatida, mustaqil sodda gaplar yoki qoʻshma gaplarning bogʻlanishidan hozir “matn” deb ataluvchi birliklar shakllanadi. Demak, aslida sintagmatic bogʻlanish iyerarx koʻrinishiga ega boʻlib,

uning quyi bosqichi, yani soʻz birikmasi va gapga nisbatan kontekst, yuqori bosqichga nisbatan esa “tekst” (“matn”) atamaları qoʻllanib kelinmoqda. Baʼzan “kontekst” atamasi ham keng maʼnolarda qoʻllanishi mumkin: gap mazmuning konteksti, nutq konteksti (vaziyati), yozuvchi konteksti (asari) kabi. Umuman, “kontekst” maʼnosida “qurshov”, “chegaralangan butunlik”, “vaziyat” semalari ustun boʻlsa, “tekst” yoki “matn” terminida “gapdan katta kommunikativ boʻlinuvchan butunliklarning mazmun va shakl jihatdan yaxlitli” maʼnosi ustunlik qiladi. Xullas, matn atamasi uchun “ikki yoki undan ortiq til (nutq) birliklarning sintagmatik butunligi” kabi umumiy asos meʼyorini (maʼnoni) qabul qiladigan boʻlsa, soʻz birikmasi va gap uchun “mikromatn” va gapdan katta nutqiy birliklar butunligi uchun “makromatn” atamalarini qoʻllash oʻrinliday koʻrinadi²³.

Vaqt maʼnolari temporal maydon birliklarning har biri turli darajalarda kontekst va matn shakllantirish imkoniyatlariga ega. Avvalo shuni aytish kerakki, temporal maydonning yadrosi hisoblangan grammatik zamon shakllari gapning muhim qurilish birliklaridir²⁴.

Grammatik zamon shakli gapga temporal leksik birliklar bilan kengayish imkoniyatini beradi: keldi, kecha keldi, oʻtgan yilning avgust oyida keldi; kelayapman, hozir kelayapman, bugun kelayapman kabi. Grammatik vositalar hisoblanuvchi payt maʼnoli koʻmakchilar soʻz komakchilar soʻz birikmasi hosil qilishda ishtirok etadi: kun sayin qizimoq, uch kundan keyin, yil boʻyi ishlamoq va hokazo.

Temporal leksema va frazemalar ham oʻzlarining maʼno hajmi koʻlamlari boʻyicha soʻz birikmasi, gap va matn hosil qilish imkoniyatlariga ega. Masalan, bir soat gapirdi deyish mumkin, lekin “oʻttiz soat gapirdi” deyish mumkin emas; “U besh yil ishladi” deyish asosli, lekin “U bir asr ishladi” deyish mantiqsizlikdir.

Temporallikni ifodalovchi vositalar quyidagi funksiyalari bilan matn shakllanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi: 1) matndagi vaqt kontinuumi-voqea- hodisalarning izchil, xronologik ketma- ketligini bildiradi; 2) matndagi

²³ Абдурахмонов Ф. Матн назарияси. / Узбек тили ва адабиёти, 1983, №1.- Б. 22- 26

²⁴ Хакимов М. Х. Узбек тилида матннинг прагматик талкини. Филол. Фанлари док. Дисс... авторев.- Т., 2001.- 49 б.

voqealarning vaqtini bildiradi: fe'l zamon formalari voqea- hodisalarning umumiy (mavhum) o'tgan, hozirgi, kelasi zamonga tegishlilikini anglatadi, vaqt ma'noli leksemalar ushbu vaqtning aniq muddatini belgilaydi. Atov gapli matn turlarida zamon tushunchasi vaqt ifodalovchi leksik birliklar orqali anglashiladi; 3) temporallikni ifodalovchi vositalar matn qismlarini (gaplarni) bo'lib xizmat qiladi. Matndagi bog'lovchi vositalar qatoriga fe'l zamon formalarining bir xilligi, vaqt ma'noli so'zlar va ularning funksional- sintaktik ekvivalentlari kabilar kiradi.

3.2.VAQT SEMANTIKALI OT VA RAVISHLARNING SINTAGMATIK IMKONIYATLARI

Vaqt otlari qo'shnichilik munosabatiga ikki tomonlama, ya'ni ham old, ham orqa tomondan kirisha oladi. Agar payt otlari ma'lum so'z birikmasida oldingi komponent bo'lib kelsa, birikuvchi (nafaol) valentlik, keyingi (oxirgi) pozitsiyada tursa, birikuvchi (faol) valentlik hisoblanadi. Payt otlarining sintagmatik imkoniyatlari vaqt o'lchov birliklari, sutka qismlari, hafta nomlari, oy nomlari, fasl nomlari leksik- semantik guruhlarda batafsil tahlil qilindi. Masalan, sutka qismlarini ifodalovchi kun, tong sahar, azon, bomdod, choshgoh, tush, peshin, asr, shom, tun, xufton kabi leksemalarning sintagmatik imkoniyatlari, avvalo, ularning semantik mundarijasiga bog'liq bo'ladi. Ushbu leksemalardan birortasi boshqa leksema bilan bog'lanish hosil qilar ekan, bu bog'lashuv ikkala leksema sememasidagi bir xil semalarning mavjudligiga yoki zid semalarning mavjud emasligiga asoslanadi. Agar ikkala bog'lanayotgan sememada bir xil semalar mavjud bo'lsa, bu biriktiruvchi yoki birikuvchi leksemaning asosiy leksik konteksti (qurshovi) hisoblanadi. Masalan, tong, sahar, azon, bomdod kabi leksemalar o'zaro sinonim bo'lib, ular kun va tunning chegarasini bildiradi va quyosh chiqqa boshlagan vaqtini nomlaydi. Ushbu leksemalarning asosiy leksik kontekstiga erishmoq, erisha boshlamoq, oqarishmoq, turmoq, uyg'onmoq, otmoq, ota boshlamoq kabilar misol bo'la oladi. Diqqat qilinsa, ushbu leksemalarda o'xshash semalar mavjud. Tong- quyosh chiqqa boshlagan payt, yorug'lik, kunning boshlanishi, tunning tugashi. Tong, sahar, azon, bomdod leksemalari ot leksemalarga ham birikib, ularni kengaytirib kela oladi: tong havosi, tong payti,

tong chog`i, sahar payti. Bunday bog`lashuvlarda tongga xoslik birlamchi ahamiyatga ega bo`lib, ushbu kontekstlarning ko`pi asosiy kontekstlardir. Taqqoslang: tongda kelmoq, tongda yozmoq va tong payti, tong chog`i. Tong, azon, sahar leksemalarining o`zlari ham boshqa leksemalar bilan kengayishi mumkin. 1) ravishlar bilan: erta tongda, bugun tongda; 2) sifatlar va sifatlashgan so`zlar bilan : kechagi tong, bugungi tong, go`zal tong, musaffo tong, iliq tong, sovuq tong va hokazo. Ko`rinib turibdiki, ushbu payt otlari sifatlashgan ravishlarni o`ziga bog`lab, asosiy kontekst hosil qilsa, tub sifatlar bilan bog`lashuvi neytral kontekstdir; 3) payt otlari bilan : bahor tongi, kuz tongi kabi. Bular asosiy (ключевой) leksik kontekstlardir. Shu o`rinda aytib o`tish joiz “tong” leksemasi va uning sinonimlari vaqt munosabatini bildiruvchi ko`makchilar bilan qo`llanadi: tongga qadar, tongdan so`ng, tongdan avval... “Tong” so`zi bosh kelishikda quyidagi fe`llar bilan bog`lana olmaydi: tong tushmoq, tong botmoq. Sutka qismlarini anglatuvchi choshgoh, peshin, tush, asr leksemalarining bog`alanish imkoniyatlari juda chegaralangan. Ularning asosiy leksik kontekstlariga qaraganda neytral kontekstlari ko`proqdir. Ushbu leksemalar “ tong “ leksemasi kabi bog`lanishlar hosil qila olmaydi. Yuqoridagi leksemalarning asosiy leksik kontekstlari vaqt otlari bilan bog`lashuvida reallashadi: peshin payti, choshgoh payti, asr vaqti, shom vaqti kabi. Sutka qismi nomlaridan “tun” leksemasining sintagmatik imkoniyatlari kattadir. U “qorong`i” semasi asosida tun cho`kdi, tun qorong`usi, tun dahshati kabi asosiy leksik kontekstlar hosil qiladi.

Payt ravishlari o`z ma`no imkoniyatlari asosida ma`noviy bog`lanishlar hosil qiladi. Payt ravishlari asosan fe`l valentligini to`ldirib, birikuvchi, tortiluvchi (nafaol) bo`lib keladi. Payt ravishlari bir tomonlama bog`lanishga kirishib, o`zi bog`lanayotgan leksemadan oldin keladi: endi boshlanadi, ertaga boshlanadi kabi. Ma`lumki, dastlabki valentlikka oid ishlar so`z turkumiga mansub bo`lgan shu asosida fe`l valentliklari aniqlangan fe`lni kengaytirishi mumkin bo`lgan bo`sh joylardan (valentlik) biri qachon ? so`rog`iga javob bo`luvchi komponent temporallikka (payt ravishlariga) mansubdir. Payt ravishlari fe`l valentligini to`ldirib kelar ekan, qanday ravishlarining qaysi turdagi fe`llarga bog`lanishini

belgilaydi. Masalan, kecha, bugun, ertaga ravishlari o'zi leksik mundarijasiga ko'ra (kecha- bugundan avvalgi kun; tun- o'tayotgan kun; ertaga- bugundan keyingi kun) uzog'i bilan 24 soat yoki uning biror bo'lagida ro'y berishi mumkin bo'lgan harakatini ifodalovchi fe'llar bilan bog'lana oladi: kecha yozdi, bugun ko'rdi, ertaga boradi kabi. Payt ravishlarining sintagmatik imkoniyatlari ularning o'tgan, hozirgi, kelasi zamoni, sutka qismini, davomli vaqtini, doimiy vaqtini ifodalovchi leksik- semantik guruhlar bo'yicha o'rganilgan. Masalan, sutka qismlarini bildiruvchi kunduzgi, ertalab, kechasi, kechqurun leksemalarini ham o'z semalariga mos ravishda bog'lanishlar hosil qilib kunduzgi (kechasi) qorong'i tushdi, tun chiqdi, kechasi erishdi kabi birikmalar hosil qila olmaydi. Zero kunduzi, ertalab sememalarida "yorug'" semasi, kechasi, kechqurun sememalarida "qorong'i" semasi mavjud bo'lib ular fe'l sememasidagi zid semalar bilan moslasha olmaydi. Polisemiya, sinonimiya, kelishik, ko'makchi kabi vositalar temporal leksemalarning sintagmatik imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

3.3. PAYT OTLARI VA RAVISHLARINING MATN SHAKLANTIRISH IMKONIYATLARI

Vaqt ma'noli so'zlar matnda o'zaro bog'lanib, bayon qilinayotgan voqea-hodisalarning oqimini (kontinuumini), xronologik ketma- ketligini bildiradi. Narsa vaqt va makonda harakatlanar ekan, har bir matn turida vaqt kontinuumi bo'lishi shart. Matn turi, uslubi va muallifining maqsadiga qarab vaqt oqimi erkin yoki xiraroq berilishi mumkin. Vaqt kontinuumi ko'proq tarixiy- ilmiy, tarixiy- badiiy matn turlarida erkin ifoda etiladi. Matn komponentlari esa temporal so'zlar zanjiri bilan bog'lanadi. Vaqt ma'noli leksemalar matnda gaplarni birlashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular gaplarni mazmun va sintaktik jihatlardan bog'lagan holda matn shaklantirishi imkoniyatiga ega:

Tonggi g'ira- shira shaharga tushib ketgan kelinini Solihabibi bu gal qandaydir umid va sabrsizlik bilan kutdi. Ammo kun o'tishi qiyin bo'ldi. Peshingacha hovlida g'imirlab yurdi: og'ilxona oldida g'ujanak bo'lib yotgan pomidorni tirgovich qo'yib taradi, bo'yi kelib tursin deb, ayvonga yaqin ekilgan bo'yradak joydagi oshrayhonning tagini chopdi. Peshindan keyin qo'shnisining

beqasam ko`rpasini qavishga o`tirdi. Tovuqning qaqaqlagani eshitildi. Solihabibi beixtiyor hovliga nazar tashladi. Kun botdi. Nega kelinidan darak yo`q ? (O`. Umarbekov).

Ushbu matndagi voqealar rivoji muayyan vaqt ketma-ketligida, yani “tong-pesningacha- peshindan keyin- kun botdi” izchilligida bayon qilinmoqda. Ko`rinib turibdiki, matn tarkibidagi gaplarning bog`lanib bir butunik tashkil qilishida asosiy bog`lovchi vosita vaqt semantikali so`zlardir.

Payt otlari matndagi gaplarni o`zaro bog`laydi. Yonma- yon so`zlarining o`zaro bog`lanishi kontakt, orasida boshqa gaplar mavjud bo`lgan gaplarning bog`lanishi distant (masofali) aloqa hisoblanadi. Asr, yil, fasl, oy, hafta, sutka (kun), soat, minut, sekund kabi leksemalar matndagi voqea- hodisalarning aniq vaqtni voqea- hodisalar orasidagi vaqt davomiyligini anglatadi:

1963 -yilda badiiy adabiyot nashriyotiga o`tib, to 1970 yilgacha muharrir, bo`lim mudiri vazifalarida ishladim. Bu o`n yil ichida mening yettita she`riy kitobim, Esenin, Ukrainka, Svetlovdan qilgan tarjimalarim bosilib chiqdi. Hamza nomli teatrdan 1969- yilda “Oltin devor” komediyam qo`yildi (E. Vohidov).

Ushbu matn parchasida “1960 –yil”, “1963 –yil”, “1970 –yil”, “o`n yil” vaqt ma`noli lug`aviy birliklardan iborat so`z birikmalarining kontakt aloqasi orqali matn shaklangan.

Vaqt semantikali leksemalarining matn shaklantirish imkoniyatlari ularning ma`no hajmiga bog`liq. Ko`p vaqt davomiyligini bildiruvchi leksemalarning matn shaklantirish imkoniyatlari katta bo`ladi, yani ular ko`p vaqtda sodir bo`luvchi voqea- hodisalarni ifodalovchi ko`proq gaplarni biriktira oladi va aksincha. Vaqt o`lchov birliklaridan eng katta matn shaklantirishi imkoniyatiga vaqt miqdori katta bo`lgan asr, yil so`zlarini keltirish mumkin. Asr leksemasi asosida trilogiya; yil leksemasi semantikasi ko`lamida roman; oy, yil, fasl, hafta leksemalari asosida qissa; hafta, sutka, kun, soat leksemalari mazmuni asosida hikoya yaratish mumkin. Eng kichik vaqt hajmiga ega on, lahza leksemalari esa ikki yoki uch gap voqealigini bog`lay olishi mumkin, xolos.

Matn shakllanishida yetakchilik qilayotgan soʻzning semik qatlami muhim ahamiyatga ega. Yetakchi soʻz gaplarni bogʻlar ekan, ushbu bogʻlashuvlar yetakchi soʻzining asosiy va potensial semalari asosida roʻy beradi:

Qish chillasi avjida. Izgʻirinli ellar esadi. Qoʻl- oyoqlariga kishan solingan, kiyimlari yirtiq mahbuslar Samarqandning Registon maydonida sovuqdan qaltirab shahar qozisining hukumini tinglaydilar (P. Qodirov). Ushbu matnda “Qish” soʻzi yetakchi boʻlib, 2- gap 1- gapga uning “sovuq” semasi yordamida bogʻlangan. Chunki “qish” sememasida ham, “izgʻirin” sememasida ham “sovuq” semasi mavjud. 3- gapda esa “sovuq” semasi semema holda yuzaga chiqadi va mazkur gapni 1- gap bilan distant, 2- gap bilan kontakt bogʻlaydi.

Vaqt maʼnoli leksemalarning matn shakllantirishida ikki xil holatni kuzatish mumkin. Birinchi holatda matn tarkibidagi barcha gaplar bevosita shu yetakchi soʻzga bogʻliq boladi. Boshqacha aytganda, ushbu soʻz barcha gaplar uchun umumiy boʻladi. Bunda matndagi temporal soʻziga bogʻlanayotgan hamma gaplar mazkur soʻz ishtirok etayotgan gapga nursimon bogʻlanadi:

Odatda, yurtimizga bahor fevralning oʻrtalarida keladi va tabiat oʻzgacha tus ola boshlaydi (1). Havolar ilib, dov- daraxtlar uygʻona boshlaydi (2). Qushlar uchib kelib, eski inlarini tuzatishga yoki yangisini qurishga tushadilar (3). Ariqlar zilol suvlarga toʻlib, atrof koʻm- kok maysazorga aylanadi (4) (“Atrofimizdagi olam”). Ushbu matn parchasida 2-, 3-, 4- gaplar bevosita birinchi gapda bogʻlanib , uni izohlab kelmoqda.

Gaplar bir- biriga zanjirsimon aloqa usuli bilan bogʻlanishi mumkin. Bunda vaqt maʼnoli yetakchi leksema zanjirning boshlanishi boʻlib xizmat qiladi. Bu kabi matn turlarida kontakt aloqa amalda boʻladi:

Martning oʻrtalari edi. Birdan kunlar esib, togʻdagi qorlar erib ketdi. Bodomsoy tosha boshladi. Lekin sinoptiklar bu toshqin xafli emas, kechga yaqin toʻxtaydi, deyishdi. Shunga qaramay baʼzi bir ehtiyot choralari koʻrildi. Ammo tonnga yaqin Burxonovga Bodomsoy labidagi Selketdi qishlogʻini suv boskanini uch- toʻrtda uyni suv olganini xabar qilishdi. Burxonov shu zahotiyoq yoʻlga tushdi (Oʻ. Umarbekov). Ushbu matnda yetakchi soʻz boʻlib mart leksemasi

kelmoqda. 1- gapdagi oy (mart) leksemasi 2- gapda kun leksemasi bilan aniqlanmoqda. Ushbu bog`lanish oy leksemasining tarkibida “kun” semasining mavjudligi sababli amalga oshirilgan. 3- gapda esa kun leksemasi ( kechga yaqin ) sutka qismgacha aniqlanib, “Kech” semasi asosida 2- gapga bog`lanmoqda. 5- gapda “kech” leksemasi ketma- ketlik asosida “tong” ga almashgan va 3- gap 5- gapni shu yosinda bog`lagan. 6- gapda “tong” leksemasi yanada kichik vaqt davomiyligi “shu zahoti” bilan aniqlanmoqda. Demak, ushbu matndagi vaqtning aniqlanishi quyida gichadir: oy (mart)- kun-kech (kechga yaqin) – tong (tongga yaqin)- shu zahoti.

Vaqt ma`noli leksemalar mantda bog`lovchi vazifasida kelar ekan, bog`lanayotgan so`zlarining sememalarida aynan sema bo`lishi yoki sememaning sememaga aylanishi lozim. Mazkur aynanlik asosida bog`lanayotgan sememalar orasida sof aynanlik, sinonimiya, antonimiya, butun- qism, tur- jins, darajalanish, sifatlash munosabatlari mavjud bo`ladi. Ushbu munosabatlar leksik takror, olmoshlar, sinonimlar, bir gap doirasida ma`nosi aniqlanmagan so`zlar, shundan beri, o`shandan so`ng, undan keyin kabi leksik- grammatik elementlar kabi vositalar yordamida shakllantiriladi. Shuningdek, vaqt ma`nosi denotatini voqelik sifatida tasdiqlash (atov gap), keyingi fikr yoki tavsifning temporal predmetini tema sifatida avval tasdiq yo`li bilan berish (Bahor ! Fasllar kelinchagi...) kabi kommunikativ ehtiyojlar ham matn shaklantiuvchi omillardandir.

Vaqt ma`noli so`zlar matn shakllantirish va uning yaxlitligini ta`minlashda temporal maydon boshqa birliklari bilan hamkorlikda faoliyat ko`rsatadi.

Tilshunoslikda shakli har xil ma`nolari ekvivalent (“teng vazn” dagi) aynanliklargina sinonimiya sifatida o`rganildi²⁵, xolos. Lekin farqliklarni shakllantiruvchi ozayib yoki ko`payib boruvchi aynanlilar e`tibordan chetda keldi. Masalan, nihol → ko`chat → daraxt leksemalar qatorni asosan “o`simlik” semasi birlashtiradi. Boshqacha aytganda, ayni qatordagi leksemalar shu arxisemasiga ko`ra sinonimdir. Lekin ushbu birlashtiruvchi o`simlik semasi ushbu qatorda har bir so`z uchun turli darajadadir. Demak, umumiy “o`simlik” ma`nosi (integral

²⁵ Mirtojiyev M. O`zbek tili semasiologiyasi – Toshkent. “Mumtoz so`z”. 2010.-B. 37,67

semasi) birlashtirsa, o'simlikning darajalanuvchi ma'no qirralari (differensial semalar) farqlaydi. Masalan, *nihol*-yangi ekilgan o'simlik; ko'chat-1-2 yillik o'simlik; *daraxt*-ko'p yillik kabi. So'ngi yillarda bu kabi leksik qatorlar graduonimik (darajali) qatorlar sifatida qabul qilinmoqda²⁶.

3.4.HAJM-O`LCHOV BILDIRUVCHI LEKSEMALAR.

Sinonimik qatordagi so'z boshqa so'zlar bilan leksik ma'nosining mavjud umumiy sxemasiga ko'ra aynan bir xil kelsa, u dominant bo'lib, qolganlari nimasi bilandir (emotsionallik, ekspressivlik, uslubiylk kabi belgilari bilan) o'zaro farqlanadi. Sinonimik qatordagi ana shu farqlilik graduonimik hodisa uchun zamin hozirlaydi. Biz ushbu maqolada hajm-o'lchov bildiruvchi sifat leksemalar sinonimik qatorlarida graduomiyaning namoyon bo'lish holatini qay yo'sinda ekanligini kuzatamiz.

Hajm-o'lchov bildiruvchi sifat leksemalar sinonimik qatorlari A. Hojiyevning "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da juda oz qismni tashkil etadi. Hajm-o'lchov bildiruvchi sifat sinonimlar qatorining soni 3 ta bo'lib, ular quyidagilar: "odatdagidan hajm-o'lchovi ortiq, kichikning aksi" semasida *katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant*; "katta og'irlikka ega, yengilning aksi" semasida *og'ir, vazmin, zildek, zil, zil-zambil, zalvorli*; "son sanog'iga yetib bo'lmaydigan" semasida *sonsiz, sanoqsiz, besanoq, behisob, hisobsiz, beadam, adadsiz*.

Yuqoridagi SQdagi leksemalar ham integral semasiga ko'ra aynan bir, ya'ni birlashsa, differensial semasiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Bu farqliklar emotsionallik, ekspressivlik, uslubiylk, presuppozitivlik, davrga munosabat kabi belgilarda namoyon bo'ladi. Masalan, "odatdagidan hajm-o'lchovi ortiq, kichikning aksi" semasida *katta, ulug', buyuk, zo'r, azim, azamat, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant* SQ²⁷dagi leksemalarning leksik ma'nolariga diqqat qilsak, ularning ekspressivlik belgisiga ko'ra farqlanishini kuzatamiz.

²⁶ Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish: Filol. fan. dokt. ...dis. Aftoref. – Toshkent. 1997., Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya: Filol. fan. nomz. aftoref. – Toshkent. 1996.

²⁷ Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati – Toshkent: "O'qituvchi". 1974. – B.234.

Yuqoridagi leksemalarning leksik ma'nolariga e'tibor bersak, "odatdagidan hajm-o'lchovi ortiqli"gi belgisi ekspressivlik belgisiga ko'ra farqlanib me'yordan yuqoriga tomon bir tomonlama darajalanish asosida o'sib boradi. [Katta] leksemasida "odatdagidan hajm-o'lchovi ortiqli"gi nisbatan ortiq bo'lib, ayni leksemani SQdagi boshqa leksemalarga nisbatan me'yorda deb belgilasak, [yirik] leksemasida belgi darajasi oldingi leksemaga nisbatan bir oz ortiq, shunga ko'ra ayni leksemani me'yordan bir pog'ona yuqorida joylashtiramiz. [Haybatli], [bahaybat] leksemasida belgi darajasi yanada kuchli bo'lsa, [[azim], [azamat] leksemalarida ham belgining darajasi oldingi leksemalarga qaraganda o'ta kuchli, shunga bu leksemalar me'yordan keyingi navbatdagi pog'onaga joylashtiriladi. [ulkan], [ulug'], [buyuk] leksemalarida "odatdagidan hajm-o'lchovi ortiqli"gi darajasi g'oyatda kuchli bo'lsa, [gigant] leksemasida esa ayni belgi darajasi eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan. Shunga ko'ra bu leksemalarni me'yordan eng yuqori pog'onaga joylashtiramiz.

Demak, yuqoridagi izohlarga tayangan holda, ayni Sqdagi leksemalar ekspressivlik belgisiga ko'ra o'zaro farqlanib, graduonimiyani quyidagi ko'rinishda shakllantiradi.

“Odatdagidan hajmi-o'lchovi ortiqlig”i darajasi					
(0)	1	2	3	4	5
Me'yorda					
Katta		yirik	haybatli	azim	ulkann/ulug'
gigant					
		Bahaybat	azamat	buyuk	

Xullas, hajm-o'lchov bildiruvchi sifat leksemalar sinonimik qatorlarida graduonimiyaning shakllanishi quyidagi jadval orqali umumlashtirib, to'liq, atroflicha izohlashga harakat qilamiz:

Differensial Semalar Leksemalar	Daraja ko'rsatkic hi	Emotsion allik	Ekspressivli k	Uslubiylik	Qo'llanilish doirasi keng yoki torligi	Eskirgan yoki yangi qatlamga xosligi
1	2	3	4	5	6	7
Gigant	5	0	5 pog'. Yuqori	Kitobiy	Tor	0
Ulug'/ulkan/buyuk	4	0		Kitobiy	Keng	0
Azim/azamat	3	0	4 pog'. Yuqori	Kitobiy	Keng	0
Haybatli/bahaybat	2	0	3 pog'. Yuqori	Kitobiy	Keng	0
Yirik	1	0		Kitobiy	Keng	0
Katta	Me'yord a	0	2 pog'. Yuqori 1 pog'. Yuqori Me'yorda	0	Keng	0

Xullas hajm o'lchov bildiruvchi sifat SQida differensial semalariga ko'ra o'zaro farqlilik ekspressivlik, qo'llanilish darajasiga ko'ra belgilarida faolroq kuzatilsa, emotsionallik, uslubiylik hamda davrga munosabat belgilarida deyarli kuzatilmaydi. Shunga qaramay yuqoridagi sifat SQida ham graduonimiyaning shakllanishida differensial semalarning o'rni beqiyosdir.

XULOSA

Biz malakaviy bitiruv ishini yozish mobaynida quyidagi xulosalarga keldik: Vaqt va oʻlchov birliklariga xos leksemalar boshqa leksik birliklar qatori leksemalar majmuidan iborat lingvistik hodisa emas, balki, eng avvalo, semiologik sistemadir, yaʼni tushunchalarning muayyan tizimini ifodalovchi vositadir.

Har bir sohaning va umumiy leksikaning sistemaviy qurilishi, ayni bir soʻzning soha ichida umumlisoniy va adabiy til bosqichlarida xilma xil paradigmatic munosabatlarga kirishishini, soʻz va terminlarning dialektik munosobatini belgilab beradi.

Har qanday leksik qatlamni, leksikaning xilma-xil mikroguruhi va guruhchalari tarkibidagi leksemalarning leksik-semantik aloqalarini koʻrsatib berish oʻzbek tili leksikasini yaxlit bir sistema sifatida namoyon etishga olib keladi va vaqt va oʻlchov birliklarini ifodalovchi leksemalar bu fikrni toʻla tasdiqlaydi.

Kishilik jamiyati paydo boʻlishi jarayonida kundalik ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan vaqt va oʻlchov birliklarining paydo boʻlish tarixi ham uzoq. Tarixiy, badiiy va ilmiy manbalarda ifodalangan mazkur leksemalarga oid terminlarni toʻplash bugungi kunda ahamiyati katta. Chunki ulardan atamashunosligimizda muammo boʻlib turgan masalalarni hal etishda asqotishi mumkin.

Xalq shevalarida uchraydigan vaqt va oʻlchov birliklarini ham zudlik bilan yigʻib olish ham har tamonlama foydali boʻladi hamda tilimizning naqadar boyligini koʻrsatuvchi manba boʻlishi mumkin.

Vaqt va oʻlchov obyektiv olam mavjudligining shakllaridan biridir. Temporallikning harakat bilan uzviy bogʻliqligi, harakat- holat turlarida rang-barangligi, nisbiyligi, abstraktligi kabi hissiy sezilmas belgilari va, umuman, vaqtning ontologik tabiati haqida qadimdan tortib hozirga qadar donishmandlar, faylasuflar hamda xususiy fanlarning tadqiqotchilari tomonidan har xil qarashlar va taʼlimotlar ilgari surildi.

Vaqtning narsa harakati davomiyligidagi oʻlchanuvchi galma- gal almashinuv deb taʼriflash mumkin.

Vaqt o`zgaruvchanlik, bir yo`nalishlilik bir jinslilik davomiylilik, uzluksizlik, qaytmaslik, cheksizlik, uzluklilik, galma- gallik harakat turlariga xoslanish nisbiy uzayish va qisqarish, mavhumlik, mustaqil hodisalilik (substansionallik), munosabatdorlik (relyativlik), hozirlik, o`tmishlik, kelgusilik, bir vaqtlilik, ketma- ketlik, o`rinsizlik (bemavridlik), behudalik, cho`zilishlik, o`tmaslik, ertalik, kechlik, ozlik, ko`plik, kattalik, kichiklik, qimmatlilik kabi obyektiv va subyektiv xususiyatlarga ega. Vaqtning obyektiv va subyektiv xususiyatlari tafakkurning tushuncha kategoriyasi asosida tilning semantik birliklariga aylangan. Vaqt ma`nosi tilda semantik iyerarx bosqichlar (sathlar) va maydon ko`lamlari bo`ylab ifodalanishga ega.

Tepmporalik leksik- grammatik sathda otlar, olmoshlar, fe`llar (to`liqsiz fe`llar), ravishlar, modal so`zlar, bog`lovchilar, ko`makchilar, yuklamalar orqali ifodalangan. Undov va taqlid so`zlar vaqtni bilvosita ya`ni o`z strukturalarining cho`ziqligi yoki qisqaligi yordamida ifoda etadi. Vaqt ma`noli frazemalar kam. Vaqt ma`noli so`z turkumlar ichida otlar va ravishlar yetakchi o`rnini egallaydi.

O`zbek tilda umumiy vaqt tushunchasi “vaqt” sememasi orqali ifodalanadi. Uning asosiy semalarini “narsa”, “harakat”, “davomiylik”, “o`lchanuvchi”, “galma- gallik”, kabilar tashkil etadi. Doimiylik, qaytmaslik, cheksizlik, uzluksizlik kabi semalar potensial yoki fakultativ semalardir. “Vaqt” sememasi boshqa leksik- frazeologik ma`nolardagi sememalar tarkibida sema (tarkibiy qism) sifatida qatnashishi mumkin. Vaqt ma`noli so`zlar matn shaklantirish va uning yaxlitligini ta`minlashda temporal maydonning boshqa birliklari bilan hamkorlikda faoliyat ko`rsatadi. Vaqt ma`noli leksemalar paradigmaticasi va sintakmatikasining atroflicha, chuqur o`rganilishi temporal hamda boshqa semantik maydonlar mohiyatining to`liqroq o`rganilishiga imkoniyatlar yaratadi.

Hajm-o`lchov bildiruvchi leksemalarda differensial semalariga ko`ra o`zaro farqlilik ekspressivlik, qo`llanilish darajasiga ko`ra belgilarida faolroq kuzatilsa-da, emotsionallik, uslubiylilik hamda davrga munosabat belgilarida deyarli kuzatilmaydi. Ammo, ularda darajalanish shakllanishida differensial semalarning o`rni beqiyosdir

DASTURIY ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Ҳалоллик ва фидойилик–фаолиятимизнинг асосий мезони бўлсин. –Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод–Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа концернининг Бош таҳририяти, 1997.
3. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт–пировард мақсадимиз. 8- 8 жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. Каримов И.А.Юксак маънавият - енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият.2008.

ILMIY ADABIYOTLAR

5. Абдиев М.Соҳавий лексиканинг систем таҳлили муаммолари.-Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,2004.
6. Абдурахмонов Х., Рафиев А., Шодмонкулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
7. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
8. Абдурахмонов Ғ. Матн назарияси. \Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, №1.- Б. 22- 26
9. Ахтамова Х. Пайт муносабатини ифодаловчи кўмакчи формалар// Ўзбек тили ва адабиёти.- 1988.- №1- Б. 47- 51.;
- 10.Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: ДДА. –Тошкент, 1997.
- 11.Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
- 12.Бегматов Э., Неъматов Ҳ., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси//Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 6-сон. -35-40 б.
- 13.Гак В.Г. Лисоний белги ассимметрияси ва терминологиянинг айрим умумий муаммолари. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси//Филология. IV-чиқиши. Илм.мақолалар тўплами. –Самарқанд: СамДУ, 2002, -183 б.
- 14.Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. –Тошкент: Фан, 1998.

- 15.Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): ДДА. –Тошкент, 1999.
- 16.Йўлдошева Х. Интонациянинг темпорал ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти.- 1985. №5.-Б. 41- 42
- 17.Комилова Х. Узбек тилида сон ва олмош.- Тошкент УзССР Фа, 1953, 108-б.:
- 18.Мадраҳимов И.С. Ўзбек тилида сўзнинг қирралиги ва уни таснифлаш асослари: НДА. –Тошкент, 1994.
- 19.Мамажонов А. Текст лингвистикаси.- Т.: Ўқитувчи, 1976,- 81 б.
- 20.Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда саҳллараро муносабатлар: ДДА. –Тошкент, 2002.
21. Мирзакулов Т.У. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: ДДА. – Тошкент, 1994.
22. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. –Тошкент: Фан, 1975.
23. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi – Toshkent. “Mumtoz so'z”. 2010.
- 24.Неъматов Ҳ.Ғ. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни//Ўзбек тили ва адабиёти, 1988, 6-сон. -38-43-б.
- 25.Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ.–Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
- 26.Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси.–Тошкент, 1995.
27. Низомиддинова С. Ҳозирги замон ўзбек тилида сон .- Тошкент : Фан, 1963, 96-б
- 28.Новиков Л.А. Сема//Лингвистический энциклопедический словарь. –М., 1990, с. 438.
- 29.Нурмонов А. Тил тизими ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, 1-сон. -27-28-б
- 30.Орифжонов Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: НДА. –Тошкент, 1996.
- 31.Расулов Р., Нарзиева М. Лексикологияни ўрганиш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992. -23 б.
- 32.Раҳматуллаев Ш. Семема мустақил тил бирлиги//Ўзбек тили ва адабиёти, 1984, 3-сон, -24-30-б.
- 33.Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семаларнинг семалар состави ва семантик бошланиши ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, 1-сон. -51-54-б.

- Раҳматуллаев Ш. Семема мустагил тил бирлиги//Ўзбек тили ва адабиёти, 1984, 3-сон, -24-30-б.
- 34.Рустамов А. Сўз хусусида сўз. –Тошкент, 1987.
- 35.Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
- 36.Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2010, 79-83-betlar.
- 37.Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. –Тошкент: Фан, 1978.
- 38.Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
- 39.Холмонова З.Бобурнома лексикаси тадқиқию ДДА. Тошкент,2009.
- 40.Шахабитдинова Ш.Х. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: ДДА. –Ташкент, 2001.
- 41.Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 1980.
- 42.Қиличев Б.Э. Ўзбек тилида партонимия: НДА. –Тошкент, 1997.
- 43.Қўчқортёев И. Сўзларнинг лексик-семантик тўдалари ҳақида// ТошДУ илмий асарлари. –Тошкент, 1969. 359-чиқиш. -84-92-б.
- 44.Қўчқортёев И. Тилнинг луғат системасини ўрганишнинг бир йўли тўғрисида//Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, 3-сон. -27-33-б.
- 45.Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДДА- Т., 2001.
- 46.Ҳакимова М.Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари.НДА. Фарғона,2004.
- 47.Ҳамдамов П. Ўзбек тилида нумеративлар .- Тошкент:- Фан, 1983.
- 48.Ҳожиёв А.Ўзбек тилининг синонимлари луғатию Тошкент,1974.
- 49.Ҳожиёв А. Сўз ва унинг моҳияти//Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент, 1981. -6-10-б.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. SO'Z VA LEKSEMA HAQIDA.....	7
1.1. SO'ZGA BERILGAN TA'RIFLAR HAQIDA.....	10
1.2. LEKSEMA VA SO'ZNING O'ZARO ALOQASI.....	13
II BOB.VAQT VA O'LCHOV BIRLIKLARINING TARIXIY ASARLARDA VA XALQ SHEVALARIDA QO'LLANISHI.....	18
2.1. PUL QIYMATINI IFODALANGAN NUMERATIVLAR.....	19
2.2. OG'IRLIK MA'NOSIDAGI NUMERATIVLAR.....	22
2.3. UZUNLIK MA'NOSIDA NUMERATIVLAR.....	24
2.4. PREDMETLARNING JOYLASHGAN O'RNIGA KO'RA QIYMAT IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.....	27
2.5. PREDMET SATHINI (YER O'LCHOVINI) IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.....	28
2.6. BO'LAKNI VA JAMLIKNI IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.	29
2.7.VAQT MA'NOSINI IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.....	30
2.8. PREDMETLAR HAJMINI IFODALAGAN NUMERATIVLAR....	33
2.9. SUYUQLIK MIQDORINI VA DONALIK MA'NOSINI IFODALOVCHI NUMERATIVLAR.....	33
2.10. SANOQ SONLARIGA SINONIMLASHGAN NUMERATIVLAR.....	34
III BOB. VAQT VA O'LCHOV BIRLIKLARI BILAN BOG'LIQ LEKSEMALAR TAHLILI.....	38
3.1. VAQT IFODALOVCHI LUG'AVIY BIRIKMALARNING MATN SHAKLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	45
3.2.VAQT SEMANTIKALI OT VA RAVISHLARNING SINTAGMATIK IMKONIYATLARI.....	48
3.3. PAYT OTLARI VA RAVISHLARINING MATN SHAKLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	50
3.4.HAJM-O'LCHOV BILDIRUVCHI LEKSEMALAR.....	54
XULOSA.....	57
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	59